

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

**Ulug'bek O'ktamovich Azizov**

**O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINING  
BARQAROR O'SISHINI  
TA'MINLASHDA MONETAR VA  
FISKAL DASTAKLAR TA'SIRI**

*Monografiya*

**Toshkent  
«IQTISOD-MOLIYA»  
2013**



UO'K 33(575.1)(072)

KBK 65.9(50')

*Ushbu*

**Taqrizchilar:**

- Sh.Z. Abdullayeva, i.f.d. prof.;
- N.X. Xaydarov, i.f.d. prof.;
- X.P. Abulqosimov, i.f.d. prof.

A-99 Azizov U.O'. **O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlashda monetar va fiskal dastaklar ta'siri.** Monografiya / O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, TMI. — T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2013, — 96 bet.

Ushbu monografiyada iqtisodiy o'sish tushunchasining mohiyati, ahamiyati ochib berilgan. Iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi omillar hamda bu boradagi mumtoz iqtisodiy nazariya vakillarining ilmiy konsepsiya va qarashlari tahlil qilingan. Ilmiy ishda monetar va fiskal dastaklar vositasida iqtisodiy o'sishni ta'minlashning konseptual asoslari bayon etilib, ularning iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishdagi roli va ahamiyati ko'rsatib berilgan.

UO'K 33(575.1)(072)

KBK 65.9(50')

ISBN 978-9943-13-421-8

© «IQTISOD-MOLIYA», 2013

© Azizov U.O'., 2013

2014/14 A 3404	Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston MA
----------------------	--

HO 42312  
281

## KIRISH

Iqtisodiy o'sishga erishish, uning sur'atlarini barqaror va maqbul darajada bo'lishini ta'minlash barcha davlatlar uchun eng ustuvor vazifa bo'lib hisoblanadi. Chunki iqtisodiy o'sish ko'rsatkichi mamlakatning kuch-qudratini va aholining farovonligini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri bo'lib hisoblanadi.

Mamlakatimiz Prezidenti I.A. Karimov O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan majlisidagi ma'ruzasida «...2013-yilda izchil yuqori o'sish sur'atlarini, makroiqtisodiy barqarorlikni saqlash va iqtisodiyotimiz raqobatbardoshligini oshirish eng muhim ustuvor yo'nalishimizga aylanishi darkor. Joriy yilda mamlakatimiz iqtisodiyotini 8 foizga, sanoatni 8,4 foizga, qishloq xo'jaligini 6 foizga, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmini 11 foizga, xizmat ko'rsatish sohasini qariyb 16 foizga oshirish, yalpi ichki mahsulotda uning ulushini 53 foizgacha o'sishini ta'minlash»<sup>1</sup> vazifasini qo'ydilar.

Iqtisodiy o'sish sur'atlarining darajasi, eng avvalo, mamlakatda amalga oshirilayotgan makroiqtisodiy siyosatga bevosita bog'liq. Iqtisodiy o'sish keng ma'noda insonlarning yashash sharoitlari va turmush darajasining yaxshilanishi bilan belgilansa, iqtisodiy nuqtayi nazardan ishlab chiqarishning miqdor va sifat jihatdan yuqori pog'onaga ko'tarilishi bilan izohlanadi. «Iqtisodiy o'sish» kategoriyasi va fenomenini o'rganish bo'yicha bir qator olimlar va soha mutaxassislari

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. «Bosh maqsadimiz» – keng kulimli islohotlar va modernizatsiya йўлини қатъият билан давом эттириш». Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2012 йилда мамлакатимизни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ҳамда 2013 йилга муъаллавланган иқтисодий дастурининг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган мажлисидаги маъруза. – «Халқ сўзи» газетаси, 2013 йил 19 январь.

ko'plab ilmiy izlanishlar olib borishgan. Iqtisodiy o'sishning natijasi bo'lgan «boylik» bilan bog'liq tushunchalar haqidagi fikrlarni ilk marotaba A.Smitning<sup>2</sup> asarlarida uchratish mumkin.

Iqtisodiy o'sishning barcha zamonaviy nazariy asoslari Dj.M.Keynes<sup>3</sup> va I.Fisher<sup>4</sup> nomi bilan bog'liq. Ular yaratgan «keynschilik» va «monetarizm» maktablari XX asrda bu sohada juda ko'plab olimlarni yetishtirdi. Masalan, Keynesning shogirdi R.Xarrod<sup>5</sup> o'zining iqtisodiy o'sishning dinamik modelini yaratgan bo'lsa, amerikalik iqtisodchi E.Domar o'zining «Domar paradoksi»<sup>6</sup> deb nomlangan «muvozanatli o'sish» nazariyasini yaratdi.

Shuningdek, E.Felps o'zining «Iqtisodiy o'sish bilan shug'ullanuvchilar uchun masal» (1961-y.) deb nomlangan asarida «jimg'arishning oltin qoidasi»ni kashf etgan bo'lsa, R.Solou jimg'arishning oltin qoidasi yoki iste'molning maksimal darajasiga erishish yo'llarini ilmiy jihatdan asoslab berganligi uchun 1987-yilda Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan.

Bundan tashqari, amerikalik iqtisodchi V.Leontev<sup>7</sup> tomonidan iqtisodiy o'sishning tarmoqlararo balans modeli «xarajatlar – mahsulot ishlab chiqarish» nomi bilan fanga kiritilgan.

Zamonaviy iqtisodchi olimlardan M.Fridmen<sup>8</sup>, R.Mundel<sup>9</sup>, D.Appleyard, F.Field, S.Kobb<sup>10</sup> va ko'plab boshqa olimlar, shuningdek, Xalqaro valuta fondining ekspertlari U.Aleksander, X.Balino va Ch.Enoxlar<sup>11</sup> to-

<sup>2</sup> Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. М. «Экономика». 1962.

<sup>3</sup> Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процентов и денег. Пер. с англ. общ. ред. А.Г. Миллиевского и И.М. Осадчий. М. «Прогресс». 1978.

<sup>4</sup> Фишер И. «Пуллариинг харид куввати» 1911 й.

<sup>5</sup> Харрод Р.К. Теория экономической динамики. Классики кейнсианства. Т.1. М. 1997. 112-б.

<sup>6</sup> Тожибоева Д. Иқтисодий назарияси. Т. «Шарқ». 2003. 126-б.

<sup>7</sup> Леонтьев В. Экономические эссе. М. 1990.

<sup>8</sup> Friedman M. Studies in Quantity Theory of Money. Chicago: University of Chicago Press. 1956.

<sup>9</sup> Mundell R., "The Appropriate Use of Monetary and Fiscal Policy for Internal and External Stability". IMF Staff Papers 9. March 1962.

<sup>10</sup> Appleyard D., Field F., Cobb S. International Economics. Fifth edition. Singapore. «International Edition». 2006.

<sup>11</sup> Александр У., Балиньо Т., Энох Ч. Принятие косвенных инструментов денежно-кредитной политики. МВФ Вашингтон. 1995. // Периодическая серия – 126. 2-бет.

monidan monetar va fiskal dastaklar orqali iqtisodiyotga ta'sir etish masalalarida ko'plab ilmiy ishlar amalga oshirilgan.

Mamlakatimizni iqtisodiy tanazzuldan olib chiqish va barqaror iqtisodiy o'sishiga erishishda davlatimiz Prezidenti I.A.Karimovning amalga oshirgan faoliyati va yozgan ilmiy asarlarining<sup>12</sup> o'rni alohida ahamiyatga ega.

Iqtisodiy o'sish muammolarini o'rganish borasida Respublikamiz olimlaridan M.Sharifxo'jayev<sup>13</sup>, A.O'Imasov<sup>14</sup>, H.Abulqosimov<sup>15</sup> va D.Tojiboyevalar<sup>16</sup> ilmiy ishlarida, asarlarida o'z fikr va xulosalarini bayon etishga harakat qilishgan. Biroq, mamlakatimiz olimlari tomonidan hozirgi kungacha O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlashga monetar va fiskal dastaklarning ta'sirini o'rganish mavzusida yetarlicha konseptual tadqiqotlar olib borilmagan va shu sababli mazkur ilmiy ishimizda aynan shu muammoni tadqiq etishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz.

Tadqiqotning asosiy maqsadi – iqtisodiy o'sishni ta'minlashga makroiqtisodiy siyosatning ahamiyatini nazariy jihatdan chuqur o'rganib chiqib, O'zbekiston sharoitida amalda monetar va fiskal dastaklarning iqtisodiyotning barqaror o'sishiga ta'sirini tahlil etish orqali iqtisodiy o'sishning ekono-

<sup>12</sup> Каримов И.А.

1) «Беш мақсадимиз – кенг қўламли ислохотлар ва модернизация йўлини қатъият билан давом эттириш». Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маъкамасининг 2012 йилда мамлакатимизни иқтисодий-иқтисодий ривожлантириш йўнатишлари ҳамда 2013 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган мажлисидаги маъруза. – «Халқ сўзи» гачетаси, 2013 йил 19 январь.

2) Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. Т.: «Ўзбекистон», 2010 й.

3) Жаҳов молжавий-иқтисодий инкирози, Ўзбекистон шaroитида уни баргараф этишнинг йўллари ва чоралари. Т.: «Ўзбекистон», 2009 й.

4) Ўзбекистон буюк келажак сари. Т.: «Ўзбекистон», 2006 й.

5) Ислохотлар стратегияси – мамлакатимиз иқтисодий салоҳиятини юксалтиришдир. // Халқ сўзи. 18.02.2003.

6) Ўзбекистон: миялий истиклол, иқтисод, сибсат, мафкура. 1-китоб, Т. «Ўзбекистон». 1996.

7) Ўзбекистон иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш йўлида. Т. «Ўзбекистон», 1995.

8) Ўзбекистон иқтисодий сиссатининг устувор йўналишлари. Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгаши XIII сессиясида сўзланган нутқ. 02.09.1993. (2-китоб)

<sup>13</sup> Шарифхўжаев М., Ўлмасов А. Иқтисодиёт назарияси. Т. «Меҳнат». 1995.

<sup>14</sup> Ўлмасов А. Иқтисодиёт асослари. Т. «Меҳнат». 1997.

<sup>15</sup> Абулқосимов Ҳ.П. «Макроиқтисодий тартибга солиш ва Ўзбекистоннинг барқарор ривожланиши». Т. «Академия». 2011.

<sup>16</sup> Тожибоева Д. Иқтисодиёт назарияси. Т. «Парк». 2003.

metrik modelini yaratish hamda respublikamiz makroiqtisodiy siyosati maqsadlariga xizmat qiladigan ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun tadqiqot ishida quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- iqtisodiy o'sishning nazariy-konseptual asoslari va amaliy muammolarini tadqiq etish;

- O'zbekistonning monetar va fiskal siyosatini tahlil etish hamda ulardagi muamolarni aniqlash;

- iqtisodiy o'sishning barqarorligiga ta'sir etuvchi makroiqtisodiy omillarni aniqlash va ularning ta'sir darajasini baholash;

- O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror o'sishi ekonometrik modelini yaratish;

- tadqiqot natijalariga asoslangan holda mamlakatimizda monetar va fiskal siyosatni takomillashtirish yuzasidan ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqish.

Monografiyaning nazariy manbalarini xorijiy va mahalliy olimlar, shuningdek, soha mutaxassislarining makroiqtisodiyot, iqtisodiy o'sish, monetar va fiskal siyosat masalalariga oid ilmiy asarlari, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, Prezident I.A.Karimovning mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan ma'ruzalari, asarlari, Xalqaro valuta fondi va respublikamiz davlat idoralari rining rasmiy statistik ma'lumotlari tashkil etadi.

Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning bir-biriga bog'liqligini aniqlashda korelyatsion va regression tahlil qilish, statistik qayta ishlash, testlar o'tkazish hamda ekonometrik modellashtirish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot ishida mamlakatimiz iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlashda monetar va fiskal dastaklarning ta'sirini o'rganish yuzasidan kompleks izlanishlar olib borildi va quyidagi ilmiy yangiliklarga erishildi:

- iqtisodiyotga davlatning bilvosita aralashuvi bevosita ta'sir ko'rsatishga nisbatan kamxarj va samarali ekanligi nazariy hamda amaliy jihatdan asoslab berildi;

- O'zbekistonda 1991-2012-yillarda amalga oshirilgan makroiqtisodiy siyosat va erishilgan asosiy ko'rsatkichlar tahlil qilindi hamda mamlakatimizni bugungi kundagi rivojlanish bosqichida o'z yechimini topishi lozim bo'lgan muammolar aniqlandi;

- respublikaning asosiy 12 ta makroiqtisodiy ko'rsatkichlari bilan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichi o'rtasida korellyatsion va regression aloqadorlik ekonometrik tahlildan o'tkazildi hamda 3 ta ko'rsatkich, ya'ni inflatsiya darajasi, joriy operatsiyalar balansi saldosi va davlat budjeti saldosi ko'rsatkichlari bilan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichi o'rtasida muhim bog'liqlik mavjudligi isbotlandi;

- O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror o'sishini prognozlashning ekonometrik modeli ishlab chiqildi;

- monetar siyosatning bilvosita dastaklaridan samarali foydalanish va egri soliqlarni undirishni takomillashtirish yuzasidan ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqildi.

Ushbu monografiyadan oliy o'quv yurtlarida va mutaxassislar malakasini oshirish kurslarida ixtisoslashgan fanlardan dars berish jarayonida nazariy qo'llanma sifatida, shuningdek, tadqiqot ishida amalga oshirilgan tahlillar va ularning amaliy natijalaridan respublikamizning monetar va fiskal siyosatini ishlab chiquvchi organlar foydalanishlari mumkin.

## I BOB. IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI

---

### 1.1. Iqtisodiy o'sish tushunchasining mohiyati, ahamiyati va nazariy konsepsiyalari

Har bir alohida davlat iqtisodiyotining barqarorligi va uning o'sish sur'atlari shu davlatda yashayotgan insonlar uchun munosib turmush sharoitlari yaratilishiga xizmat qiladi.

Iqtisodiy resurslar va imkoniyatlar cheklangan bir sharoitda insoniyatning ehtiyojlari kengayib borar ekan, ana shu ehtiyojlarni qondirishning yagona yo'li iqtisodiy o'sishdir. Iqtisodiy o'sish tufayligina ijtimoiy, siyosiy, harbiy va boshqa sohalaridagi taraqqiyotga erishish mumkin. Shu sababli, qadim zamonlardan hozirgi kunga qadar iqtisodiy fanlarda asosiy e'tibor iqtisodiy o'sish yo'llarini tadqiq etishga qaratib kelinadi.

Iqtisodiy o'sish keng ma'noda insonlarning yashash sharoitlari va turmush darajasining yaxshilanishi bilan belgilansa, iqtisodiy nuqtayi nazardan ishlab chiqarishning miqdor va sifat jihatdan yuqori pog'onaga ko'tarilishi bilan izohlanadi. Bu o'zgarishlar pirovard mamlakatning ravnaq topishida, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning hajmi ortib, sifati yaxshilanib, tarkibi kengayib borishida ifodalanadi. Va nihoyat, iqtisodiy o'sish mamlakatning kuch-qudrati yuksalishini, xalqning turmush tarzi va farovonligi yaxshilanishini ta'minlaydi.

Qayd etib o'tish joizki, iqtisodiy o'sish bu muqarrar tabiiy jarayon emas. Iqtisodiy o'sishga erishish «yetti o'lchab bir kesishni», to'g'ri iqtisodiy siyosatni belgilab olishni va uni amalga oshirishni talab etadi.

Iqtisodiy o'sish haqidagi ilmiy nazariyalardan, olimlarning



tadqiqotlaridan va tarixiy faktlardan shu narsa ma'lumki, iqtisodiy o'sish doimo ravon bo'lmaydi, u o'ziga xos sikllik xarakterga ega bo'lib, goh ko'tarilib, goh pasayib turadi.

«**Iqtisodiy o'sish**» — bu o'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra ma'lum bir davr (1 yil, 5 yil yoki 10 yil) ichida o'tgan xuddi shu davrdagiga nisbatan qancha ko'p mahsulot yoki xizmatlar ishlab chiqarilganligini ifodalovchi ko'rsatkichdir. Zamonaviy iqtisodiy nazariyada va amaliyotda «**Iqtisodiy o'sish**» deganda aniq konkret davr — bir moliyaviy yilda ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulot (YaIM)ning o'tgan yilga nisbatan real o'sishi (pasayishi) ko'rsatkichi tushuniladi. Ya'ni, «Iqtisodiy o'sish» sur'ati real YaIMning o'sish sur'ati bilan ifodalanadi.

Miqdor ko'rsatkichi nuqtayi nazaridan iqtisodiy o'sishga, asosan, quyidagi ikki usul orqali erishish mumkin: ekstensiv va intensiv. Qo'shimcha ishlab chiqarish resurslari (mehnat kuchi, uskuna, energiya, xom ashyo va boshqalar)ni jalb qilish evaziga iqtisodiy o'sishga erishish — iqtisodiy o'sishning *ekstensiv* usuli va resurslarni tejab-tergab ishlatish, ishlab chiqarish samaradorligini hamda mehnat unumdorligini oshirish evaziga iqtisodiy o'sishga erishish — iqtisodiy o'sishning *intensiv* usuli deb ataladi.

Shuningdek, iqtisodiy o'sishni ifodalovchi ko'plab an'anaviy va noan'anaviy ko'rsatkichlar mavjud. Masalan, YaIMning real o'sish ko'rsatkichi, uning aholi jon boshiga taqsimlangandagi ko'rsatkichi, aholining real daromadlarining yoki jamg'armalarining o'sishi, aholining o'rtacha umr ko'rish yoshining o'sishi, ijtimoiy xizmatlar, ya'ni tibbiyot xizmatlari, toza ichimlik suvi, elektr energiya, tabiiy gaz bilan ta'minlanganlik darajasi va savodxonlikning o'sishi kabi ko'rsatkichlar *an'anaviy* ko'rsatkichlar bo'lib hisoblansa, aholini jon boshiga yengil avtomashina, muzlatkich, kir yuvish mashinasi va h.k. boshqa uy-joy anjomlari bilan ta'minlanganlik darajasining o'sishini belgilovchi ko'rsatkichlar iqtisodiy o'sishning *noan'anaviy* ko'rsatkichlari bo'lib hisoblanadi.

Iqtisodiy o'sishga bir qancha omillar ta'sir ko'rsatadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish (Y) uchun uchta asosiy omil muhim rol o'ynaydi.

Ular — mehnat (L), kapital (K) va yer (tabiiy resurslar-N). Demak, yalpi ishlab chiqarish yoki yalpi ichki mahsulotni quyidagi funktsiya orqali ifoda etish mumkin:

$$Y = f(L, K, N) \quad (1)$$

Agar ushbu funktsiyaga matematik model sifatida qaraydigan bo'lsak unda mazkur funktsiyaning hosilasi iqtisodiy o'sishni ifoda etadi. Umumiy holda uni quyidagi formula bilan ifoda etish mumkin:

$$\Delta Y = \left(\frac{\Delta Y}{\Delta L}\right) \times L + \left(\frac{\Delta Y}{\Delta K}\right) \times K + \left(\frac{\Delta Y}{\Delta N}\right) \times N \quad (2)$$

Mazkur formulani zamonaviy metodologiya bo'yicha takomillashtiradigan bo'lsak uni quyidagicha ifoda etish mumkin:

$$\Delta Y = \left(\frac{\Delta Y}{\Delta C}\right) \times C + \left(\frac{\Delta Y}{\Delta G}\right) \times G + \left(\frac{\Delta Y}{\Delta I}\right) \times I + \left(\frac{\Delta Y}{\Delta X}\right) \times X - \left(\frac{\Delta Y}{\Delta M}\right) \times M \quad (3)$$

Bu yerda: C — iste'mol (consumption), G — davlat xarajatlari (government spending), I — investitsiya (investment), X — eksport (export) va M — import (import).

Iqtisodiy o'sish muammolari doimo turli millatga mansub olimlar, siyosatchilar va soha mutaxassislari o'rtasidagi muloqotlarda markaziy o'rinlardan birini egallab kelgan. Iqtisodiy o'sish bilan bog'liq munozaralar asosan — «Iqtisodiy o'sishdan ko'zlangan maqsad nima? Iqtisodiy o'sish sur'atlari qanday bo'lishi kerak? Qanday omillar evaziga iqtisodiy o'sishning maqbul darajasini ta'minlash mumkin?...» kabi savollarga javob izlashni maqsad qilib qo'yadi.

Iqtisodiy o'sishning natijasi bo'lgan boylik bilan bog'liq tushunchalar haqidagi fikrlarni ilk marotaba U.Petti va undan so'ng A.Smitning<sup>17</sup> asarlarida uchratish mumkin. Iqtisodiy o'sishning barcha zamonaviy nazariy asoslari esa Dj.Keynesning<sup>18</sup> makroiqtisodiy muvozanat nazariyasi (keyin-

<sup>17</sup> Смит А. Исследования о природе и причинах богатства народов. М. «Экономика». 1962.

<sup>18</sup> Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процентов и денег. Пер. с англ. общ. ред. А.Г. Миллиевского и И.М.Осадчей. М. «Прогресс». 1978.

chalik – neokyesian nazariya deb atalgan) va neoklassik ishlab chiqarish nazariyasi bilan bog'liq.

XX asrning 30-yillarida Keynesning shogirdi R.Xarrod o'zining iqtisodiy o'sish dinamik modelini yaratdi. R.Xarrodning<sup>19</sup> fikricha, iqtisodiy o'sishga erishish uchun jamg'arma normasi kapital sig'imi va aholining o'sishiga teng bo'lishi zarur. U aholi sonining ko'payishini va texnika taraqqiyotini iqtisodiy o'sishning tabiiy sharoiti deb hisoblaydi. R.Xarrod modelining asosiy tenglamasi quyidagicha ifodlangan:

$$G = s/c$$

Bu yerda  $G = \Delta Y_t / Y_{t-1}$  – o'sish sur'ati,  $S = \Delta K / \Delta Y_t$  kapital sig'imi me'yori va  $s = S/Y$  – jamg'arma normasidan iborat. Shuningdek, R.Xarrodning xulosasiga ko'ra, davlatning siyosati iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi yoki muvofiq-lashtiruvchi investitsion siyosatdan, ya'ni jamg'arma bilan investitsiyani muvozanatlashtirishga hamda kafolatlangan iqtisodiy o'sish bilan tabiiy iqtisodiy o'sish o'rtasidagi farqni minimallashtirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Amerikalik iqtisodchi E.Domar nomi bilan ataladigan «Domar paradoksi»<sup>20</sup>ga muvofiq doimiy ravishda muvozanatli o'sish sur'atini saqlash, vaqti-vaqti bilan o'sib borayotgan ishlab chiqarish quvvatlarini to'la ishlatish uchun investitsiya sur'atini ko'paytirish lozim. Bunday o'sish sur'ati kafolatlangan o'sish sur'ati, deb nomlanadi. Iqtisodiy o'sishning kafolatlangan sur'ati, odatda, beqaror bo'lib, asosan hukumatning investitsiya siyosatiga bog'liq.

Neokyesian nazariyadan farqli o'laroq, neoklassiklar ta'limotida iqtisodiy o'sishda ko'p omillar (faktorlar) inobatga olinadi. Neoklassik maktab vakillari – amerikalik iqtisodchi P.Duglas va matematik Ch.Kobb ishlab chiqarishning o'sishi va milliy daromadning ko'payishida turli omillar hissasini baholash imkoniyatini beruvchi Kobb-Duglas makroiqtisodiy

<sup>19</sup> Харрод Р.К. Теория экономической динамики. Классики кейнсианства. Т.1. М. 1997. 112-б.

<sup>20</sup> Тоғжобова Д. Иқтисодий назарияси. Т. «Шарк». 2003. 126-б.

modelini yaratishgan (1928-y.). Keyinchalik golland iqtisodchisi, Nobel mukofoti laureati Yan Tinbergen (1942-y.) Kobb-Duglas modelini yanada rivojlantirdi.<sup>21</sup>

XX asrning 50-yillari o'rtalariga kelib dunyoning yetakchi davlatlari o'rtasida fan-texnikaning rivojlanishi bilan bog'liq kuchli raqobatli kurash boshlandi va ular o'rtasida iqtisodiy o'sish darajasida farqlanish borgan sari kuchaya boshladi. Shu davrda neokeynsian va neoklassik maktab vakillari o'rtasida iqtisodiy o'sish muammolariga qiziqish ancha ortdi. Bunda fan-texnika rivojlanishining iqtisodiy o'sishga ta'siri sezilarli tus oldi.

Texnika taraqqiyotining ta'sirini hisobga olgan holda iqtisodiy o'sish muammolarini o'rganish masalalari amerikalik iqtisodchilar E.Felps, R.Solou, J.Mid va E.Denisonlar tomonidan ham yanada kengaytirildi. Masafan, E.Felps o'zining «Iqtisodiy o'sish bilan shug'ullanuvchilar uchun masal» (1961-y.) asarida «jamg'arishning oltin qoidasi»ni kashf etgan bo'lsa, R.Solou jamg'arishning oltin qoidasi yoki iste'molning maksimal darajasiga erishish yo'llarini ilmiy jihatdan asoslab berganligi uchun 1987-yilda Nobel mukofotiga sazovor bo'ldi.

Respublikamiz mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng mamlakatimiz oldida turgan eng asosiy vazifalardan biri – bu iqtisodiyotni tanazzuldan olib chiqish va barqaror o'sish sur'atlariga erishish edi. Bu borada davlatimiz rahbariyati, ko'plab yetuk mutaxassislar va olimlar bir qator ilmiy va amaliy ishlarni amalga oshirdilar.

Mamlakatimizni iqtisodiy tanazzuldan olib chiqish va barqaror iqtisodiy o'sishiga erishishda Prezidentimiz I.A.Karimovning amalga oshirgan faoliyati va yozgan ilmiy asarlarining o'rni alohida ahamiyatga ega. Davlatimiz rahbari boshchiligida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar natijasida 1996-yilda mustaqil mamlakatimizda birinchi marta yalpi ichki mahsulotning real o'sish ko'rsatkichiga erishildi va yildan yilga ushbu ko'rsatkichning o'sish tendensiyasi mustahkamlanib keldi.

---

<sup>21</sup> Курс экономической теории. Под общ. ред. Чепурина М.Н. и Киселевой Е.А. Киров. «Аса». 1998. 603-бет.

## 1.2. Monetar va fiskal dastaklar vositasida iqtisodiy o'sishni ta'minlashning konseptual asoslari

Har bir mamlakatning iqtisodiy yuksalishi davlatning iqtisodiyotga u yoki bu darajadagi ta'siriga bevosita bog'liq. Iqtisodiyotning o'zi — bu uning ishtirokchilari o'rtasidagi dinamik jarayondan iborat. Iqtisodiyotning ishtirokchilari keng ma'noda jamiyat a'zolari bo'lib, o'z ichiga davlat organlari, tashkilotlari va korxonalarini, aksiyadorlik jamiyatlari, xususiy kompaniyalar va firmalarni hamda ularni tashkil etgan fuqarolar va subyektlarni oladi. Iqtisodiyotning dinamik jarayon ekanligi — uning ishtirokchilarining daromad olish yoki muvaffaqiyat qozonish maqsadida doimo harakatda bo'lishi bilan hamda pirovardida ularning barchasi iqtisodiy faoliyatsizlikdan manfaatdor ekanligi bilan ifodalanadi. Bundan tashqari har qanday iqtisodiy faoliyat o'ziga xos qonun va qoidalar asosida tartibga solinadi. Demakki, har qanday mamlakatning iqtisodiy yuksalishi ushbu davlatda amalga oshiriladigan iqtisodiy siyosatga to'g'ridan to'g'ri bog'liqdir.

Iqtisodiy o'sishga erishishda har bir davlat iqtisodiy siyosatning bevosita va bilvosita dastaklaridan foydalanadi. Iqtisodiy siyosatning bevosita dastaklarini innovatsion-texnologik progress va tabiiy boyliklardan samarali *foydalanish, investitsiya siyosatini yuritish, yuqori mehnat unumdorligini rag'batlantirish* kabi chora-tadbirlar tashkil etadi. Iqtisodiy siyosatning bilvosita dastaklarini makroiqtisodiy siyosat dastaklari deb ham ataladi va ular davlatning *soliq-budjet (fiskal) siyosati va pul-kredit (monetar) siyosatidan* iboratdir.

**Fiskal siyosat** — bu davlatning o'z xarajatlarini qoplash maqsadida markazlashgan jamg'armalarini shakllantirish bilan bog'liq siyosatidir (iqtisodiy adabiyotlarda budjet siyosati deb ham yuritiladi). Iqtisodiyot nazariyasida fiskal siyosatni mashhur iqtisodchi olim Djon Maynard Keynes nomi bilan bog'lab, «keynescha yo'nalish» («Keynesian view») deb ham atashadi.

Davlat budjeti ikki asosiy qismdan — *daromadlar va xarajatlardan* iborat. Davlat budjeti — davlat pul mablag'lari

(shu jumladan, davlat maqsadli jamg'armalari mablag'lari)ning markazlashtirilgan jamg'armasi bo'lib, unda daromad manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdorlari nazarda tutiladi.<sup>22</sup>

Har bir mamlakat budjetining tarkibi, eng avvalo uning davlat tizimi bilan bog'liq bo'lib, mamlakatning o'ziga xos xususiyatlarini, uning sotsial-iqtisodiy tuzilishini ifodalaydi.

Unitar davlatlar budjeti davlat va mahalliy budjetlardan iborat bo'lsa, federativ mamlakatlarda muvofiq ravishda oraliq bo'g'in qo'shilib, shtatlar (AQSh), administrativ tuzilmalar (GFR), respublikalar (Rossiya) bo'g'inidan iborat bo'ladi.<sup>23</sup>

Davlat budjetining daromadlari quyidagi manbaalar hisobidan shakllanadi:

- soliqlar, yig'imlar, bojlar va boshqa majburiy to'lovlar;
- davlatning moliyaviy va mulkiy aktivlarini sotish, ijaraga berish, depozitga qo'yish hisobidan keladigan daromadlar;
- davlat ulushi bo'lgan korxonalaridan olinadigan dividendlar va to'laligicha davlatning mulki bo'lgan tashkilotlarning yil yakuni bo'yicha taqsimlangan foydasi;
- chel el rezidentlarining qarzlari, turli grantlari va boshqalar.

Odatda, davlat budjetining daromadlari, asosan (ya'ni 90-95 foizgacha qismi), soliqlar, yig'imlar, bojlar va boshqa majburiy to'lovlar hisobidan shakllanadi.

Davlat budjetining xarajatlari bu jamiyatning iste'moli bo'lib, asosan quyidagi maqsadlarga yo'naltiriladi:

- ijtimoiy sohaga (sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat, sport va kam ta'minlangan aholini moliyaviy qo'llab-quvvatlashga);
- mudofaa, sud-huquq va davlat boshqaruvi sohasiga;
- davlat investitsiyalariga va strategik sohalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashga;
- davlat qarzlari qaytarishga va boshqa xarajatlarga.

<sup>22</sup> Абулқосимов Х., Ҳасанов Р., Шомуродов Р., Жўраев Р., Набиҳўжаев А., Ғайбуллоев О., Азизов А. Давлатнинг макроектисодий сиёсати. Т. «Академия». 2007. 82-бет.

<sup>23</sup> Тожибоева Д. Иқтисодиёт назарияси. Т. «Шарк». 2003. 220-бет.

Ayrim iqtisodchi olimlar davlat budjetini mamlakatning ichki balansi deb ham atashadi.

Fiskal siyosatning asosiy ikki turi mavjud — bular *qat'iy (diskretsiyon)* va *yumshoq (nodiskretsiyon)* siyoslardan iborat. *Diskretsiyon* fiskal siyosatda davlat budjetining daromadlari doimo xarajatlaridan ortiq bo'ladi, ya'ni davlat budjeti doimo profitsitga ega bo'ladi. Bunda fiskal siyosatning maqsadi soliq yukini ko'paytirish hisobiga budjet daromadlarini o'stirish va xarajatlarni kamaytirishga qaratiladi. *Nodiskretsiyon* siyosatda davlat budjetining xarajatlari daromadlardan ko'proq bo'ladi, ya'ni budjet defitsitga ega bo'ladi. Bunda fiskal siyosatning asosiy maqsadi xarajatlarni oldindan rejalashtirib olish va soliqlarning yukini pasaytirish hisobiga daromad manbalarining minimal chegaralarini o'rnatish bilan belgilanadi.

Diskretsiyon fiskal siyosatdan ko'zlangan maqsad iqtisodiy siklda qisqa davrdagi muammolarni hal etish bo'lsa, nodiskretsiyon fiskal siyosatda uzoq davrga mo'ljallangan vazifalarni hal etish nazarda tutiladi.

Fiskal siyosatning asosiy dastaklari bo'lib soliqlar va davlat xarajatlari hisoblanadi. Bugungi kunda iqtisodiyotda soliqlarning ahamiyati juda katta ekanligi barcha zamonaviy iqtisodiy nazariya vakillari tomonidan e'tirof etiladi. M. Berns, G. Stayn va A. Lafferlar soliqlar to'g'risidagi keyneschilik nazariyasi qarashlarini rivojlantirib, soliqlarni iqtisodiyotni boshqarish va rivojlantirishning muhim omili ekanligi haqida fikrlarni takomillashtirdilar. Ularning fikriga ko'ra, yuqori soliq solish tadbirkorlik va investitsiya faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va oxir-oqibatda soliq to'lovlarining kamayib ketishiga olib keladi. Soliq yukini kamaytirish esa, iqtisodiyotning jadal sur'atlar bilan o'sishiga olib keladi.<sup>24</sup>

**Monetar siyosat** bu davlatning pul-kredit sohasidagi siyosati bo'lib, iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. Monetar siyosat konsepsiyasini fanga ilk bor klassik iqtisodiyot maktabi vakili Irving Fisher o'zining «Pullarning xarid quvvati» (1911-y.) nomli asari bilan kiritdi. Bu nazariya keyinchalik «monetarizm» nazariyasi deb atala boshladi.

<sup>24</sup> Булатов А. Экономика. М. «Бек». 1994. 310-бет.

I.Fisher birinchi marta muomaladagi pul massasi bilan yalpi ishlab chiqarish orasidagi bog'liqlikni topishga harakat qilgan. Unga ko'ra, Fisherning asosiy g'oyasi quyidagi formula bilan ifoda etiladi:

$$M \times V = P \times Q$$

Bu yerda:  $M$  – muomaladagi pul miqdori,  $V$  – pul aylanish tezligi,  $P$  – baho indeksi va  $Q$  – milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarning miqdori.

Ushbu formuladan ishlab chiqarish hajmi pul massasiga to'g'ri proporsional bo'lganligi sababali muomaladagi pul massasini boshqarish orqali iqtisodiy rivojlanishni va buning natijasida iqtisodiy o'sishni ta'minlash mumkin, degan xulosani shakllantirish imkoni tug'iladi.

Monetarizmning keyingi namoyandalari J.Tobin, D.Leyder, K.Bryunner, A.Melttzer hamda M.Fridmen kabi olimlar tomonidan pul taklifini boshqarish orqali iqtisodiyotga ta'sir etish masalalarida ko'plab ilmiy ishlar amalga oshirildi.

Zamonaviy monetarizmning asosiy qoidalari quyidagilarda o'z ifodasini topgan:

1. Bozor iqtisodiyoti o'zini-o'zi tartibga solish xususiyatiga ega. Undagi barcha salbiy holatlar davlatning asossiz aralashuvi natijasida yuzaga keladi. Shu sababli ushbu aralashuvni minimum darajasigacha pasaytirish lozim.

2. Muomaladagi pul massasi bilan YaIM o'rtasida korrellyatsion bog'liqlik mavjud. Haddan ortiqcha pulni muomalaga kiritish yoki uning yetishmasligi iqtisodiyotni izdan chiqishiga olib keladi. Shu sababli pul taklifi sur'ati iqtisodiy o'sish sur'ati bilan uyg'un bo'lishi zarur.

Keyneschilar qarashlariga ko'ra, davlat siyosati mehnat resurslari bandligini va ishlab chiqarishning maksimal darajada bo'lishini ta'minlashdan iborat bo'lsa, monetaristlarning fikriga ko'ra, uning asosiy vazifasi baholarning va milliy pul birligining barqarorligini ta'minlashdan iborat bo'lishi kerak.

Davlatlarning monetar siyosati, asosan, ularning Markaziy banklari tomonidan amalga oshiriladi. Monetar siyosatning asosiy maqsadi inflatsiyani jilovlash, narxlarni nazorat qilish va



milliy pul birligini boshqa xorijiy valutilarga nisbatan kursining barqarorligini ta'minlashdan iborat. Bunga erishish maqsadida Markaziy bank bir qator monetar siyosat dastaklaridan foydalanadi. Zamonaviy xorijiy iqtisodchi olimlardan K.Makkonell va S.Bryular monetar siyosatning uchta asosiy dastaklarini ko'rsatib o'tadilar:

- 1) ochiq bozordagi operatsiyalar;
- 2) majburiy zaxiralar normalarini tartibga solish;
- 3) hisob stavkasini o'zgartirish<sup>25</sup> shular jumlasidandir.

Xalqaro valuta fondining ekspertlari – U.Aleksander, X.Balino va Ch.Enoxlar monetar dastaklarni bilvosita va bevosita turlarga ajratishadi. Ularning fikriga ko'ra,<sup>26</sup> bevosita va bilvosita monetar dastaklarning bir-biridan farqi quyidagilardan iborat:

- bevosita dastaklar narxlarni (foiz stavkalarini) yoki miqdorni (kreditni) belgilash yoxud cheklashni nazarda tutadi, bilvosita dastaklar esa bozor orqali pulga bo'lgan talab va taklifga ta'sir ko'rsatadi;

- bevosita dastaklardan kredit limitlari sifatida asosan tijorat banklarining balansiga ta'sir qilish uchun foydalanilsa, bilvosita dastaklardan markaziy bank balansi holatini yaxshilash uchun foydalaniladi.


Hozirgi kunda jahon amaliyotida esa pulga bo'lgan talab va taklifni tartibga solish, shu jumladan, pul massasini, moliya bozorlarini, bank tizimi likvidligini tartibga solish hamda milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash maqsadida markaziy banklar hisob stavkasi, ochiq bozor operatsiyalari, majburiy zaxiralar normasi, valuta intervensiyasi va boshqa ma'muriy dastaklardan foydalaniladi.

Monetar siyosatning asosiy ikki turini alohida ko'rsatib o'tish mumkin. Bular – restriksion va ekspansion siyosatlardir.

*Restriksion monetar siyosatda* davlat milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash va inflatsiyani jilovlash maqsadida qattiq pul-kredit siyosatini, ya'ni «qimmat pullar» siyosatini amalga

<sup>25</sup> Макконелл К., Брю С. Экономика: принципы, проблемы и политика. Пер. с англ. Бишкек. «Туркестан». 1998. II том. 300-304 бет.

<sup>26</sup> Александр У., Балиньо Т., Энох Ч. Принятие кредитной политики. МВФ. Вашингтон. 1995. //Непериодическая серия – 2.



oshiradi. Bunda monetar siyosatning vazifasi muomaladagi pul massasini kamaytirishdan iborat bo'lib, foiz stavkalari va majburiy zaxiralar normasi ko'tariladi.

*Ekspansion monetar siyosatda* davlat milliy valutaning barqarorligini mo'tadillashtirish va inflatsiyani jilovlashni su-saytirish orqali eksportni rag'batlantirish maqsadida yumshoq pul-kredit siyosatini, ya'ni «arzon pullar» siyosatini amalga oshiradi. Bunda monetar siyosatning vazifasi muomaladagi pul massasini ko'paytirishdan iborat bo'lib, foiz stavkalari va majburiy zaxiralar normasi pasaytiriladi.

Iqtisodiy maslahatchilar kengashining qarashlariga ko'ra (The Council of Economic Advisers (1990))<sup>27</sup> fiskal va monetar siyosatning asosiy maqsadi iqtisodiy o'sishni ta'minlash va aholining turmush darajasini yuksaltirishdan iboratdir. Ya'ni fiskal siyosat mamlakat ichki balansini, ya'ni davlat budjetini tartibga solish orqali va monetar siyosat uning tashqi balansini, ya'ni to'lov balansini tartibga solish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlashi lozim. Ushbu qoidaning isbotini kanadalik iqtisodchi olim, Nobel mukofoti sovrindori (1999-y.) Robert Mundel va iqtisodchi olim Markus Fleming tomonidan ishlab chiqilgan grafikdan yaqqol ko'rish mumkin (1.2.1-chizma).


Ushbu chizmada vertikal o'qda monetar siyosatning asosiy dastagi bo'lgan foiz stavkasi (i) hamda gorizontaal o'qda fiskal siyosatni belgilovchi davlat budjeti xarajatlari (G-government spending) va daromadlari (T-taxes) o'rtasidagi farq (G-T) –defitsit/profitsit aks ettirilgan.

Davlatning ichki balansi (Davlat budjeti) – IB to'g'ri chizig'i orqali, tashqi balansi (To'lov balansi) esa EB to'g'ri chizig'i orqali ifodalangan. Ushbu to'g'ri chiziqlarning har ikkilasi fiskal va monetary siyosat {i va (G-T)} bilan bog'liq holda aks ettirilgan.

IB to'g'ri chizig'idan yuqorida joylashgan (I va IV qismdagi) nuqtalar ishsizlikning ortishini va pastda joylashgan (II va III qismdagi) nuqtalar inflatsiyaning kuchayishini aks ettiradi. Shu sababli IB to'g'ri chizig'i shartli ravishda ishsizlik

<sup>27</sup> Appleyard D., Field F., Cobb S. International Economics. Fifth edition. Singapore. «International Edition». 2006. 613-bet.

bilan inflatsiyaning o'rtasidagi muvozanatni ifoda etadi. EB to'g'ri chizig'idan yuqorida joylashgan (I va II qismdagi), nuqtalar esa to'lov balansining profitsitini va aksincha (III va IV qismdagi) defitsitini ko'rsatadi.



1.2.1-chizma. Mundell – Fleming grafiği<sup>28</sup>

Bu esa mamlakat jamg'armalari miqdorining o'zgarishi bilan bog'liq. Agar  $i^*$  va  $(G-T)^*$  koordinatalarda kesishgan nuqta mamlakat iqtisodiyoti uchun eng maqbul deb topilgan nuqta bo'lsa, unda IB va EB to'g'ri chiziqlari bir vaqtning o'zida faqat  $i^*$  va  $(G-T)^*$  nuqtadagina kesishishlari mumkin. Demak, agar iqtisodiyot  $i^*$  va  $(G-T)^*$  nuqtada bo'lmasa monetar siyosat to'lov balansini yoki fiskal siyosat davlat budjetini tartibga solishi lozim bo'ladi.

2008-yilning avgust oyida AQShning ipoteka bozorida boshlanib, keyinchalik nafaqat ushbu davlat moliya bozorining inqiroziga, balki dunyoning aksariyat mamlakatlari iqtisodiyotini tanazzulga uchratgan jahon iqtisodiy-moliyaviy inqirozi dunyoning barcha davlatlarida iqtisodiyotni tartibga solishda yangicha yondashuvlar va nazariyalarning yaratilishiga, shu-

<sup>28</sup> Appleyard D., Field F., Cobb S. International Economics. Fifth edition. Singapore. «International Edition». 2006. 619-bet.

ningdek, ayrim davlatlarda «bozor iqtisodiyoti o'zini-o'zi tartibga solishga qodir» degan qoidani qayta ko'rib chiqishlariga sabab bo'ldi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashda iqtisodiy siyosatning bevosita dastaklaridan foydalanish bilan bir vaqtda, uning fiskal va monetar dastaklaridan ham umumli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy o'sishga erishishda iqtisodiy siyosatning bilvosita dastaklari uning bevosita dastaklariga nisbatan ancha samarali bo'lib, iqtisodiy o'sishning o'ziga xos «katalizatori» vazifasini bajaradi.

### 1.3. O'zbekistonda iqtisodiy barqarorlik siyosatini shakllantirishda monetar va fiskal dastaklarning o'rni va ahamiyati

XX asrning 60-yillarida g'arb kapitalist davlatlari inflatsiya bilan bog'liq jarayonlarni boshdan kechirdi va 60-yillarning oxirlarida esa nafaqat yuqori inflatsiya, balki yuqori ishsizlik bilan bog'liq muammolar yuzaga keldi.<sup>29</sup> Ushbu holat 1991-yilda sobiq ittifoqning parchalanishidan keyin yuzaga kelgan mustaqil davlatlarning iqtisodiyotlarida ham takrorlandi.

Boshqa hamdo'stlik davlatlari singari O'zbekistonda ham 1991-yilda chuqur iqtisodiy tushkunlik boshlandi va u, eng avvalo, keng iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishining qisqarishi bilan ifodalandi. Buning asosiy sabablari, birinchidan, sobiq ittifoqdan meros bo'lib qolgan davlat monopoliyasi va kuchli ma'muriy boshqaruv tizimi bo'lsa, ikkinchidan, O'zbekistonning milliy iqtisodiyoti tuzilmasi bir yoqlama ixtisoslashgan edi. Bundan tashqari, mamlakatning mustaqil moliya-soliq va pul-kredit tizimi mavjud emasligi iqtisodiy tushkunlikni yanada taranglashtirdi. Natijada o'sha paytda muomalada ishlab chiqarish bilan ta'minlanmagan pul miqdori haddan tashqari ko'payib ketdi va bu, o'z navbatida, giperinflatsiyani keltirib chiqardi.

1992-yilda O'zbekistonda eng katta tushkunlik yuz berdi va mamlakat YaIM oldingi yilga nisbatan 11,1 foizga tushib ketdi.<sup>30</sup> Bundan tashqari, jahon bozorida paxta tolasi narxining keskin tushib ketishi sanoat ishlab chiqarishiga ham o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatdi.

Shuni alohida qayd etish joizki, mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki yillarida davlatimiz rahbariyati tomonidan olib borilgan oqilona va sobitqadam iqtisodiy siyosat boshqa hamdo'stlik davlatlaridan farqli o'laroq, iqtisodiyotni keskin tanazzuldan saqlab qoldi. Masalan, 1991-1996-yillarda YaIMning pasayishi Ukrainada 53 foizni, Qozog'istonda 44

<sup>29</sup> Vane R.H., Thompson L.J. Monetarism: Theory, Evidence & Policy. Liverpool. «M. Robertson». 1979. 190-bet.

<sup>30</sup> Тожибоева Д. Иқтисодий назарияси. Т. «Шарк». 2003. 118-бет.

foizni, Qirg'izistonda 42 foizni, Rossiyada 39 foizni va Belorusiyada 35 foizni tashkil etgan bo'lsa, O'zbekistonda ushbu ko'rsatkich 17 foizni tashkil etdi.<sup>31</sup>

Iqtisodiyotni barqarorlashtirish, YaIMning o'sish sur'atlariga erishish hamda mamlakatni ma'muriy-rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga olib o'tishda chuqur tarkibiy islohotlarni amalga oshirish katta miqdordagi moliyaviy resurslarni, investitsiyalarni va malakali mutaxassislarni talab etar edi. Shu sababli O'zbekistonda iqtisodiyotni tartibga solishni davlat o'z zimmasiga oldi va «davlatning bosh islohotchilik» tamoyili belgilab qo'yildi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab davlat mulkini xususiylashtirish, kichik biznesni rivojlantirish orqali ishlab chiqarishni rivojlantirish chora-tadbirlari bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Buning natijasida 1996-yilga kelib birinchi marta mamlakatda ishlab chiqarishning o'tgan yilga nisbatan 1,7 foizga<sup>32</sup> o'sish ko'rsatkichiga erishildi.

O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tish davrining dastlabki yillari davlat fiskal siyosatining asosiy maqsadi davlat budjeti taqchilligini kamaytirish, aholini ijtimoiy himoya qilish, iqtisodiyotni tiklash maqsadida xarajatlarni moliyalashtirish uchun manbalarni qidirib topish va iqtisodiyotning ishlab chiqarish bazasini yangilash hamda zamonaviylashtirishning ustuvor vazifalarini bajarishga qaratilgan edi. Shu maqsadda 1992-1997-yillar davomida davlatning fiskal siyosati soliq solish tizimini shakllantirish va takomillashtirish, davlat budjetining samarali va barqaror daromad bazasini yaratishga yo'naltirildi.

Dastlab, O'zbekistonning soliq tizimi umumdavlat soliqlaridan (foyda solig'i, daromad solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) va aksiz solig'i), mahalliy soliqlar va yig'imlardan hamda budjetdan tashqari fondlarga ajratmalardan tashkil topdi. Asosiy soliqlardan biri QQS 1992-yilda 30 foizli stavka bo'yicha joriy etilib, ilgari mavjud bo'lgan oborot solig'i bekor qilindi. Keyinchalik QQS bir necha marta qayta ko'rib

<sup>31</sup> Тожибоева Д. Иқтисодийёт назарияси. Т. «Шарк». 118-бет.

<sup>32</sup> IMF, World Economic Outlook, 04/ 2003. 181-бет. 04/2004. 195-бет.

chiqilib, uning stavkasi 1994-yilda 20 foizga, 1995-yilda 18 foizga va 1997-yilda 17 foizga o'zgartirildi.

Yuridik shaxslarga daromad (foyda) solig'i QQS bilan bir vaqtda joriy etildi va uning stavkalari korxonalarining tarmoq turiga qarab 12 foizdan 30 foizgacha belgilandi. Aksiz solig'i ham 1992-yilda joriy etilib, ushbu soliq turi aksiz solig'iga tortiladigan tovar guruhlari bo'yicha natural yoki sotilgan qiymatidan kelib chiqib belgilandi.

1997-yilga kelib davlat fiskal siyosatining asosiy huquqiy asoslaridan biri bo'lgan Soliq Kodeksi qabul qilindi va ushbu me'yoriy-huquqiy hujjat soliq siyosatining asosiy masalalari: soliqlar turlari va stavkalari, klassifikatsiyasi, soliqqa tortish metodologiyasi, soliq imtiyozlari va boshqa masalalarni aniq va ravshan ko'rsatib berganligi bilan o'ziga xos ahamiyatga ega bo'ldi. Soliq siyosatining muhim vazifasi davlatimiz rahbari ta'kidlaganlaridek, «bir tomondan, budjet daromadining barqaror safarbarligini ta'minlashdan, ikkinchi tomondan — korxonalarni respublika uchun zarur bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishini ko'paytirishga rag'batlantirishdan iborat»<sup>33</sup> bo'ldi.

Fiskal siyosatni shakllantirishda mamlakatimizning markaziy iqtisodiy organlaridan biri sifatida Moliya vazirligi zimmasiga nafaqat davlat budjeti daromadlari bazasini oqilona shakllantirish va ularni samarali taqsimlash, balki makroiqtisodiy barqarorlikni, inflatsiyaning past darajasini saqlash, iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlari va aholining optimal bandligini ta'minlash vazifalari ham yuklatildi. Bundan tashqari mamlakatimiz budjeti bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish maqsadida 2000-yil 14-dekabrda «Budjet tizimi to'g'risida»gi va 2004-yil 26-avgustda «Davlat budjetining g'azna ijrosi to'g'risida»gi qonunlar qabul qilindi.

Mamlakatimizning bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida olib borilgan fiskal siyosatida asosiy e'tirob ikkita muhim masalaga qaratildi. Bular — soliq yuki va budjet taqchilligini kamaytirish masalalaridir.

Soliq yuki umumiy holda ishlab chiqarilayotgan mahsulot-

<sup>33</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. Т. «Ўзбекистон». 1998. 52-бет.

lar tarkibidagi soliqlarning miqdorini anglatadi. Yoki nazariy jihatdan davlat budjetiga tushgan soliqlarning mamlakat YaIMiga nisbati tushuniladi. Respublikamizda soliq tizimini takomillashtirishga yo'naltirilgan dastlabki islohotlardayoq asosiy e'tibor soliq yukini kamaytirishga qaratildi. Masalan, 1996-yilda respublikamizda soliq yuki o'rtacha 45 foizni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2004-yilga kelib 30,4 foizgacha pasaytirilishiga erishildi.<sup>34</sup>

2013-yilda esa soliq yuki yalpi ichki mahsulotga nisbatan 21,3 foiz miqdorida bo'lishi belgilangan.<sup>35</sup>

Budjet taqchilligini kamaytirish masalasi ham fiskal siyosatning asosiy vazifalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Budjet taqchilligini moliyalashtirishning asosan ikkita manbasi mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

1. Inflatsion manbalar: Markaziy bank tomonidan qo'shimcha pul emissiyasini amalga oshirish va Markaziy bank kreditlari (qarzlari).

2. Noinflatsion manbalar: ichki va tashqi zayomlar, to'g'ridan to'g'ri chet el investitsiyalari, oltin-valuta zaxiralari-ni sotish, davlat mulkini xususiylashtirishdan olingan daromadlar.

Respublikamizda mustaqillikning dastlabki yillarida budjet taqchilligini moliyalashtirishda, asosan, inflatsion manbalardan foydalanilgan bo'lsa, 1997-yildan boshlab undan to'liq voz kechildi va 2002-yilgacha noinflatsion manbalardan foydalanildi. 2003-yildan boshlab hozirgi kungacha mamlakatimiz davlat budjeti profitsit bilan ijro etilmoqda.

O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tish davrining dastlabki yillarida mamlakatning pul-kredit tizimi ham og'ir ahvolda edi. Sobiq ittifoq davrida «butun bank tizimi yagona markazdan boshqarilib, kreditlash limitlari ham, naqd pul chiqarish limitlari ham faqat markazning ruxsati bilan amalga

<sup>34</sup> Абулқосимов Х., Ҳасанов Р., Шомуродов Р., Жўраев Р., Набижўжасв А., Ғайбуллаев О., Аъизов А., Давлатнинг макроеқтисодий сиёсати. Т. «Академия». 2007. 92-бет.

<sup>35</sup> Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси мажлиси янги 2013 йил 18 январдаги «2012 йилда республикани ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш ақунлари ва 2013 йилги иқтисодий дастурнинг асосий устивор вазифалари тўғрисида»ги қарори. // Халқ сўзи газетаси, 2013 йил 22 январь, №14(5688).



oshirilib, barcha masalalar yuqoridan hal etilar edi»<sup>36</sup>. Shu sababli O'zbekiston oldida qisqa fursat ichida milliy bank tizimini shakllantirish va davlatning monetar siyosatini amalga oshirish institutini amalda tashkil etish vazifasi turar edi. Sobiq ittifoq davlatlari orasida O'zbekiston birinchilardan bo'lib 1991-yil 15-fevralda «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonunni qabul qildi. Mazkur qonun mamlakatimizni bozor munosabatlariga o'tish davri vazifalariga mos keluvchi bank muassasalarini tashkil etishning huquqiy asoslarini belgilab berdi. Unga muvofiq respublikamizda ikki pog'onali bank tizimi shakllantirildi. Birinchi pog'ona – O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va ikkinchi pog'ona – tijorat banklaridan iborat edi.

Markaziy bankning asosiy vazifalari etib mamlakatning monetar siyosatini amalga oshirish, shu jumladan, pul emissiyasi va muomalasini tashkil etish hamda tartibga solish, tijorat banklarini litsenziyalash va ular ustidan nazorat o'rnatish, banklar o'rtasida to'lov tizimini yo'lga qo'yish kabi vazifalar belgilab qo'yildi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida monetar siyosatning asosiy maqsadi inflatsiyani jilovlash va uning o'sish sur'atlarini keskin pasaytirish, retsessiyani oldini olish, milliy valutani muomalaga kiritish hamda makroiqtisodiy barqarorlikka erishish choralari ko'rishga qaratildi.

1991-1996-yillar davomida mamlakatning pul-kredit tizimi rivojlanishning o'ziga xos tarixiy yo'lini bosib o'tdi. Markaziy bank mamlakat makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlash va inflatsiyani jilovlash maqsadida monetar siyosatning bevosita va bilvosita dastaklaridan samarali foydalanishga harakat qildi. Hatto shunday davrlar ham bo'ldiki, masalan, 1994-yilda Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasi 150 foizdan 225 foizgacha, majburiy zaxiralar me'yori 15 foizdan 30 foizgacha ko'tarildi.<sup>37</sup> Buning sababi o'sha davrda

---

<sup>36</sup> O'zbekiston Respublikasi bank tizimi. Muallajonov F.M. taхрири ostida. T. «O'zbekiston». 2001. 28-бет.

<sup>37</sup> Muallajonov F.M. Банковская система в годы независимости. T. «O'zbekiston». 1996. 80-81 бет.

inflatsiya darajasining miqdori qayta moliyalash stavkasiga nisbatan nafaqat O'zbekistonda, balki MDHning barcha davlatlarida ham yuqori bo'lib, amalda qayta moliyalash stavkasi salbiy bo'lib qolgan edi.

Pul-kredit tizimining ahvoli 1994-yilda milliy valuta muomalaga kiritilgandan so'ng o'nglana boshladi. Bu o'z navbatida, Markaziy bankka monetar siyosatni samarali amalga oshirishga imkon yaratdi. 1995-yil 21-dekabrda «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi va 1996-yil 25-aprelda «Banklar va bank faoliyati to'g'risida» yangi tahrirdagi qonunlarni qabul qilinishi monetar siyosatni amalga oshirishning huquqiy asoslarini yanada mustahkamlab, uni yangi bosqichga olib chiqdi. Shundan so'ng Markaziy bank Depozit sertifikatlari va Davlat qisqa muddatli obligatsiyalari bilan ochiq bozor operatsiyalarini amalga oshirish, qayta moliyalash stavkasini yuqori darajada ushlab turish va valuta intervensiyasini amalga oshirish kabi dastaklarini qo'llash natijasida muomaladagi pul massasiga ta'sir etish orqali 1996-yilda inflatsiya darajasini o'tgan yilga nisbatan yillik 304,6 foizdan 54,0 foizgacha tushishiga erishdi.<sup>38</sup> 1997-yilda inflatsiya darajasining 27,6 foizgacha, qayta moliyalash stavkasining esa 38,0 foizgacha pasayishiga erishildi.<sup>39</sup> Buning natijasida, qayta moliyalash stavkasi bilan inflatsiya o'rtasida ijobiy saldo yuzaga kelib, ishlab chiqarish sur'atlarining o'sishini ta'minlovchi omil paydo bo'ldi.

1998-2002-yillar davomida mamlakatimiz Prezidentining bank tizimini erkinlashtirish va isloh qilishga qaratilgan bir qator farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari bank tizimi va monetar siyosatning yanada rivojlanishiga mustahkam zamin yaratdi. Ushbu davrda asosiy e'tibor xususiy va aksiyadorlik tijorat banklarining shakllanishiga, yirik davlat tijorat banklarini xususiylashtirishga, ularning investitsion jarayonlardagi ishtirokini kengaytirishga, kichik biznes korxo-

<sup>38</sup> IMF, World Economic Outlook, 04/ 2003. 181-bet. 04/2004. 195-bet.

<sup>39</sup> Абдулқосимов Х., Ҳасанов Р., Шомуродов Р., Жўраев Р., Нәбиҳўжаев А., Ғайбуллин О., Азизов А., Давлатнинг макроиқтисодий сисъати. Т. «Академия». 2007. 116-бет.

nalarini kreditlashni jadallashtirishga, milliy valuta bozorini erkinlashtirishga qaratildi.

2003-yil 4-fevralda qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining «Pul-kredit ko'rsatkichlarini tartibga solish mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 63-sonli qaroriga asosan kassa rejalarini nazorat qilish kabi eskirgan usullar bekor qilinib, uning o'rniga bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan, zamonaviy, tez ta'sirchan kuchga ega bo'lgan uslublar joriy etildi. Bu esa Markaziy bankka monetar siyosatning bevosita dastaklariga nisbatan uning bilvosita dastaklaridan kengroq foydalanishiga imkon yaratdi. Natijada 2003-yilda inflatsiya darajasi 14,8<sup>40</sup> foizgacha pasaydi, shuningdek, joriy operatsiyalar bo'yicha milliy valutaning chet el valutariga erkin almashinuvini to'liq ta'minlash maqsadida Xalqaro Valuta Fondi ustavining VIII moddasi talablariga zid keluvchi barcha cheklovlar bekor qilindi.

Hozirgi kunda pul bozorida holat, xususan banklararo bozordagi depozit va kredit foiz stavkalarining hamda pul agregatlarining o'zgarishi, ularga ta'sir etuvchi omillar doimiy ravishda tahlil qilinib, monitoring kuzatuvlari o'tkazilmoqda. Ushbu tahlillar asosida Markaziy bankning monetar siyosati muomaladagi pul massasini boshqarish orqali iqtisodiy o'sish sur'atlariga ijobiy ta'sir etishdan iboratdir.

So'nggi yillarda mamlakatimiz moliya-bank tizimi barqaror va ishonchli faoliyat yuritib, yuqori ko'rsatkichlarni namoyon etib kelmoqda. 2012-yilda bank tizimining jami kapitali 24,3 foizga, so'nggi uch yilda esa ikki barobarga ko'paydi. Bugungi kunda kapitalning yetarlilik darajasi 24,0 foizdan oshib, bu esa qabul qilingan umumiy xalqaro standartlardan 3 barobar ortiqdir. 2012-yil yakunlari bo'yicha bank tizimining likvidligi 65,0 foizdan ortmoqda, bu esa talab etiladigan minimal darajadan 2 barobar yuqoridir. 2010-yilda mamlakatimizning atigi 13 ta tijorat banki ijobiy xalqaro reytingga ega bo'lgan bo'lsa, ayni paytda ularning soni 28 taga yetdi.<sup>41</sup>

<sup>40</sup> IMF, World Economic Outlook, 04/ 2003. 181-bet. 04/2004. 195-bet.

<sup>41</sup> «Ўзбекистон билан IV моддага мувофиқ 2012 йилги маслахатлар ўтказиш бўйича миссия

Xalqaro valuta jamg'armasi missiyasi rahbari Veronika Bakalu mamlakatimizda 2012-yil noyabr-dekabr oylarida missiya tomonidan olib borilgan faoliyat natijalari asosida «O'zbekiston iqtisodiyoti jadal sur'atlar bilan o'smoqda. Soliq-budjet va tashqi faoliyat sohaslaridagi mustahkam pozitsiya, bank tizimining barqarorligi, davlat qarzining kamligi va tashqaridan qarz olishga ehtiyotkorlik bilan yondashish mamlakatni global inqirozning salbiy oqibatlaridan himoya qildi»<sup>42</sup> deb ta'kidlagan fikrlari ham respublikamizda erishilgan ijobiy natijalarni tasdiqlaydi.

---

ишьяниг ахунлари тўғрисида Баскот» – «Халқ сўзи» газетаси, 2012 йил 18 декабрь.

<sup>42</sup> <http://ebu.uz/ru/news/myf>

## **II BOB. O'ZBEKISTONNING ASOSIY MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARI TAHLILI: ERISHILGAN YUTUQLAR VA NAVBATDAGI VAZIFALAR**

---

### **2.1. O'zbekistonning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlar**

O'zbekiston Markaziy Osiyoda joylashgan tabiiy resurslar-ga boy mamlakatlardan biri hisoblanadi. Mamlakatimiz mustaqillikni qo'lga kiritgan dastlabki kunlardan boshlab o'z iqtisodiyotining jahon hamjamiyatiga intergatsiyalashuviga, erkin raqobatga va kuchli ijtimoiy himoyaga asoslangan bozor munosabatlarini barpo etishga qaratdi. Bunda, asosan, iqtisodiyotni markazlashgan rejali ma'muriy boshqaruv tizimidan davlat tomonidan tartibga solinadigan va raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyotiga o'tishni ta'minlash maqsadida moliyaviy tizimdagi islohotlarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratildi.

O'zbekiston tabiiy gaz, ko'mir, neft, kumush, volfram, mis, oltin, uran kabi tabiiy resurslarga va ularni qayta ishlash potensialiga ega bo'lgan mintaqadagi boy davlatlardan biri bo'lib hisoblanadi. Shu bilan birga, O'zbekistonda rejali ma'muriy boshqaruv tizimidan erkin raqobatga asoslangan ijtimoiy yo'naltirilgan bozor munosabatlariga o'tishda amalga oshirilgan keng qamrovli iqtisodiy islohotlar natijasida hozirgi kunda mamlakatimiz Markaziy Osiyoda avtomobilsozlik, to'qimachilik va yengil sanoat, elektronika, farmatsevtika, tabiiy gazni qayta ishlash va mahsulot ishlab chiqarish, uni eksport qilish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va eksport qilish sohalarida yetakchi o'ringa chiqdi.

O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillarida mamlakat

yalpi ichki mahsulotida qishloq xo'jaligining ulushi 70 foizni, sanoatning ulushi 10 foizni va boshqa sohalarning ulushi 20 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2012-yilga kelib mamlakat yalpi ichki mahsulotida qishloq xo'jaligining ulushi 25.2 foizni, sanoatning ulushi esa 52,5 foizni va boshqa sohalarning ulushi 22,3 foizni tashkil etmoqda.<sup>43</sup>

Mustaqillik yillarida YaIM tarkibida mulkchilik shakllari bo'yicha ham tub o'zgarishlar ro'y berdi. Mahsulot ishlab chiqarish, ishlar va xizmatlar tarkibida nodavlat sektori asosiy o'rinni egalladi. Nodavlat sektorining ulushi 1995-yilda 58,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2010-yilga kelib bu ko'rsatkich 81,7 foizga yetdi va shundan xo'jalik birlashmalari ulushi 27,4 foizni, qo'shma korxonalar hissasi 14,2 foizni, xususiy fermer xo'jaliklari ulushi 6,5 foizni hamda aholining xususiy mulki 30,4 foizni tashkil etdi.<sup>44</sup> 2012-yilda esa nodavlat sektorining YaIMdagi ulushi yanada ortdi.

Respublikamiz bank-moliya tizimida amalga oshirilgan keng qamrovli iqtisodiy islohotlar natijasida bank tizimining mustaqilligi ta'minlanib, uning ikki pog'onali tizimi joriy etildi. Bundan tashqari ilgari faqat davlat tasarrufidagi banklar mavjud bo'lgan bo'lsa, zamonaviy tizimda tijorat banklarining turli mulkchilik shaklida tashkil etilishi qonun asosida kafolatlangan. Shuningdek, ilgari mavjud bo'lmagan moliyaviy tashkilotlar – mikrokredit tashkilotlari, lizing kompaniyalari, fond birjasi kabi tuzilmalar tashkil etildi. Tizimdagi ushbu o'zgarishlar amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlarning qamrovini belgilab beradi.

Makroiqtisodiy siyosatni amalga oshirishning qonuniy asoslari sifatida 1995-yil 21-dekabrda «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida», 1996-yil 25 aprelda «Banklar va bank faoliyati to'g'risida», 1997-yil 29-avgustda «Davlat soliq xizmati to'g'risida» va «Davlat bojxona xizmati to'g'risida», 1997-yil 26-dekabrda «O'zbekiston Respublikasining Bojxona Kodeksini tasdiqlash to'g'risida»,

<sup>43</sup> Manba: <http://stat.uz/uz/economy/>

<sup>44</sup> Статистик гуллам. «Ўзбекистон Республикаси иқтисодий-ижтимоий тараққиётининг мустақиллик йилларидаги (1990-2010 йиллар) асосий тенденция ва кўрсаткичлари ҳамда 2011-2015 йилларга мўлжалланган прогнозлари». Т.: «Ўзбекистон», 2011 й. 63-б.

2000-yil 14-dekabrda «Budget tizimi to'g'risida», 2004-yil 26-avgustda «Davlat budjetining g'azna ijrosi to'g'risida», 2008-yil 22-iyulda «Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida»gi qonunlarning qabul qilinishi makroiqtisodiy o'zgarishlarning huquqiy bazasini yanada mustahkamladi.

Ma'lumki, mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekiston eksportining asosiy qismini paxta tolasi, oltin va tabiiy gaz tashkil etar edi. Ushbu mahsulotlarning jahon bozorlaridagi narxi esa mamlakatimiz eksporti salohiyatiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir etadi. Masalan, 1995-2000-yillar mobaynida O'zbekiston eksporti jahon bozorida oltin va paxta tolasining narxlari keskin tushib ketishi bilan bog'liq og'ir qiyinchiliklarga duch keldi. Bu esa mamlakat tashqi savdo balansi ahvoriga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatdi. Mamlakatimiz YaIMda eksportning ulushi 1994-yildagi 45,1 foizdan 1999-yilda 16,1 foizgacha pasayib ketdi.

Mamlakatimizda iqtisodiyotni paxta, oltin, tabiiy gaz kabi birlamchi xom-ashyo mahsulotlari eksporti qaramligidan qutultirish maqsadida 1998-yildan boshlab bahosida qo'shilgan qiymat ko'p bo'lgan sanoat mahsulotlarining mamlakat eksportidagi ulushini ko'paytirishga alohida e'tibor qaratildi.

Shundan so'ng ishlab chiqarish sohasi sanoatning to'qimachilik, avtomobilsozlik, mashinasozlik, kimyo, elektronika, oziq-ovqat, farmatsevtika, mikrobiologiya kabi sohaslarini rivojlantirish orqali kengaytirila boshlandi. Xizmat ko'rsatish sohasida esa mehmonxona, chakana savdo va kichik biznes sohaslariga e'tibor kuchaytirila boshlandi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda nodavlat sektorining YaIMdagi ulushi 75 foizni yoki sanoat ishlab chiqarishining yarmidan ko'pi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi, xizmat ko'rsatish va savdo sohasining 100 foizi xususiy sektor hisobiga yaratilmoqda.

Kichik biznesning mamlakatimiz YaIMdagi ulushi 1991-yilda 1,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2000-yilda bu ko'rsatkich 31,5 foizni, 2012-yilda esa 54,6 foizni<sup>45</sup> tashkil etdi.

2004-2006-yillarda O'zbekistonda YaIMning real o'sish

<sup>45</sup> Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг мажлиси тўғрисида Ахборот. – «Халқ сўзи» газетаси. 2013 йил 19 январь.

ko'rsatkichi 6-8 foiz darajasida saqlangan bo'lsa, 2007-2012-yillarda bu ko'rsatkich 8 foizdan kam bo'lmadi.

2008-yil avgust oyida AQSh ipoteka bozorida boshlanib, keyinchalik dunyodagi aksariyat davlatlar iqtisodiyotiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatgan jahon moliyaviy inqiroziga qarshi mamlakatimizda ham «Inqirozga qarshi chora-tadbirlar Dasturi» qabul qilindi. Mazkur dastur asosida 2009-2012-yillar davomida amalga oshirilgan qattiq pul-kredit siyosati va yumshoq fiskal siyosat inflatsiyani jilovlashga, ishsizlik darajasini pasaytirishga, aholi real daromadlarining o'sishiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatdi. O'z navbatida, mamlakatimiz eksportining muhim tarkibiy elementlari hisoblangan tabiiy gaz, paxta tolasi va oltinning jahon bozorlaridagi narxlarining O'zbekiston foydasiga omadli ko'tarilishi natijasida milliy valutamiz — «so'm»ning almashinuv kursining barqarorlashuviga va YaIMning real o'sishiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatdi. Masalan, birgina 2012-yilda<sup>46</sup> mamlakatimiz tashqi savdo aylanmasidagi ijobiy saldo 1 milliard 250 million AQSh dollaridan oshib, O'zbekistonning oltin-valuta zaxiralari ham shuncha miqdorga ko'payishga erishildi.

Davlatimiz rahbari I.A.Karimov Oliy Majlis palatalarining 2010-yil 12-noyabrdagi qo'shma majlisida mamlakatimizni zamonaviy rivojlanayotgan demokratik davlatlar qatoriga kirish, iqtisodiyotning baraqaror o'sishini ta'minlash, hayot sifatini yaxshilash va jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashi borasidagi sayi-harakatlariga baho berib, «...qariyb yigirma yillik mustaqil taraqqiyotimiz mobaynida O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotning o'sishi 3,5 barobarni, aholi jon boshiga hisoblaganda esa 2,5 barobarni, aholining real daromadlarining o'sishi 3,8 barobarni tashkil etgan»<sup>47</sup>ligini mamnuniyat bilan ta'kidlab o'tgan edilar.

Shuningdek, 2011-yilda ham bu boradagi ishlar davom

---

<sup>46</sup> Karimov I.A. «Bosh maqsadimiz — keng kўlamli islohotlar va modernizatsiya йўлини қатъият билан давом эттириш». Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2012 йилда мамлакатимизни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ҳамда 2013 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган мажлисидаги мазҳуза — «Халқ о'ғзи» газетаси, 2013 йил 19 январь.

<sup>47</sup> Каримов И.А. «Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси», Т.: «Ўзбекистон», 2010 й. 4-б.



ettirildi va yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'ati 8,3 foizni tashkil etib, respublikamizda ish haqi 20,2 foizga, budget tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiyalar, nafaqa va stipendiyalar miqdori esa 26,5 foizga o'sdi. Aholining real daromadlari esa yil mobaynida 23,1 foizga ortdi. Agar 1991-yilda eng kam ish haqiga Xalqaro mehnat tashkiloti va Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining tavsiyalariga muvofiq tarzda qat'iy hisoblab chiqilgan iste'mol savatchasi qiymatining faqat 8 foizini tashkil etadigan tovar va xizmatlarni xarid qilish mumkin bo'lgan bo'lsa, 2011-yilda bu ko'rsatkich iste'mol savatchasining 120 foizini tashkil etdi yoki 15 barobar o'sdi, eng kam pensiyaning xarid qobiliyati esa 9 karra oshdi.<sup>48</sup>

2012-yil yakunlari bo'yicha esa mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot 8,2 foizga o'sgan bir vaqtda, inflyatsiya darajasi 7 foizdan oshmadi. Davlat budjeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,4 foiz miqdorida profitsit bilan ijro etilib, barcha xarajatlarning 59,2 foizi ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirildi. Shuningdek, budget tashkilotlari xodimlari ish haqi, pensiyalar, nafaqalar va stipendiyalar bir yilda o'rtacha 26,5 foizga, aholining real daromadlari esa 17,5 foizga o'sishiga erishildi.<sup>49</sup>

Mamlakatimiz iqtisodiyotida erishilgan marralar, istiqbolga mo'ljallangan uzoq muddatli maqsadlar, jahon bozorida real va yuzaga kelishi prognozlashtirilayotgan vaziyatlardan kelib chiqib, quyidagilar 2013-yilgi iqtisodiy dasturining eng muhim yo'nalishlari va ustuvor vazifalari etib belgilandi.<sup>50</sup>

- iqtisodiy o'sishning barqaror yuqori sur'atlarini, macro-iqtisodiy barqarorlikni saqlab qolish va mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish;

<sup>48</sup> «2012 йил Ватанимиз тараққийини янги бошқичга кўтарадиган йил бўлади» Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислам Каримовнинг 2011 йилнинг асосий яқунлари ва 2012 йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси.

<sup>49</sup> Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси мажлисининг 2013 йил 18 январдаги «2012 йилда республикани ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш яқунлари ва 2013 йилги иқтисодий дастурнинг асосий устувор вазифалари тўғрисида»ги қарори // Халқ сўзи газетаси, 2013 йил 22 январь, №14(5688)

<sup>50</sup> O'sha manba.

- iqtisodiyotni va uning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilashni jadal-  
lashtirish va ko'lamini kengaytirish, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash;

- yo'l-transport va kommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirish;

- mamlakatni modernizatsiya qilish va yangilash chora-tadbirlarini amalga oshirishning muhim sharti va manbaya sifatida faol investitsiya siyosatini amalga oshirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish, zarur ishbilarmonlik muhitini yaratish;

- ish o'rinlari tashkil etish va mamlakat aholisi bandligini ta'minlash;

- aholining hayot darajasi va sifati izchil oshirilishini ta'minlash.

Iqtisodiy dasturda belgilangan eng muhim yo'nalishlar va ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlash hamda 2013-yilda O'zbekistonda iqtisodiy o'sish ko'rsatkichini 8,0 foiz darajasida bo'lishiga erishish maqsadida joriy yilda asosiy makroiqtisodiy parametrlar — soliq yuki yalpi ichki mahsulotga nisbatan 21,3 foiz miqdorida, Markaziy bank qayta moliyalash stavkasini 12 foiz darajasida, inflatsiya ko'rsatkichi 7-9 foiz doirasida bo'lishi prognoz qilinmoqda. Bu o'z navbatida, 2013-yilda mamlakatimiz Investitsiya dasturida belgilangan 370 dan ortiq strategik loyihalarning amalga oshirilishiga, 970 mingdan ortiq yangi ishchi o'rinlarining tashkil etilishiga, budget tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiyalar, nafaqa va stipendiyalar miqdorini o'rtacha 23 foizdan kam bo'lmagan darajaga oshirishga, 2013-2015-yillarda aholi real daromadlarining kamida bir yarim barobarga ko'payishiga zamin yaratadi.

## 2.2. Iqtisodiy o'sishni ta'minlashda monetar siyosatning o'ziga xos xususiyatlari va vazifalari

O'zbekiston o'z mustaqilligini e'lon qilganidan keyin mamlakatning makroiqtisodiy barqarorligiga erishish uchun bank tizimini monetar boshqaruv tizimiga o'tkazishga alohida e'tibor qaratildi.

Respublikada monetar va bank islohotlarini shartli ravishda beshta bosqichga bo'lish mumkin. Birinchi bosqich, ilgari ta'kidlanganidek, 1991-1994-yillarni o'z ichiga olgan ikki pog'onali bank tizimining shakllanishi hamda Markaziy bank va tijorat banklari faoliyatining me'yoriy-huquqiy bazasi yaratilishi bilan bog'liq davrni o'z ichiga oladi. O'zbekistonning o'z monetar siyosatini shakllantirishining dastlabki bosqichida, eng avvalo, davlat iqtisodiyotining ustuvor tarmoqlarini, shu jumladan, sanoat potensialini kuchaytirish va rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Xuddi shu davrda inflatsiyaga qarshi chora-tadbirlar ikkinchi darajali vazifaga aylangan edi.

1994-2000-yillarni o'z ichiga olgan ikkinchi bosqich milliy valutani muomalaga kiritish bilan boshlandi. Ushbu davrda, ya'ni 1995-yil 21-dekabrda «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida», 1996-yil 25-aprelda «Banklar va bank faoliyati to'g'risida» qonunlar qabul qilindi hamda monetar menejmentning va bank nazoratining, shuningdek, buxgalteriya va moliyaviy hisobning xalqaro standartlariga o'tildi.

Ikki pog'onali bank tizimining huquqiy-prudensial turkumlanishi natijasida Markaziy bank va tijorat banklarining maqomi, maqsadi, vazifalari, funksiyalari, faoliyatlarining xususiyatlari aniq belgilab olindi.

«O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi qonunga muvofiq Markaziy bankning bosh maqsadi – milliy valutaning barqarorligini ta'minlashdan iborat<sup>51</sup> ekanligi belgilab qo'yildi. Shuningdek, ushbu qonunning 3-moddasiga muvofiq Markaziy bankning asosiy vazifalari:

---

<sup>51</sup> «Ўзбекистон Республикасининг Марказий банки тўғрисида»ги қонун, 3- модда. 21.12.1995 й., 154-1-сон. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1995 й., 12-сон, 247-модда.

- monetar siyosatni hamda valutani tartibga solish sohasidagi siyosatni shakllantirish, qabul qilish va amalga oshirish;

- O'zbekiston Respublikasida hisob-kitoblarning samarali tizimini tashkil etish va ta'minlash;

- banklar, mikroredit tashkilotlari va garovxonalar faoliyatini litsenziyalash hamda tartibga solish, banklar, mikroredit tashkilotlari va garovxonalarni nazorat qilish, qimmatli qog'ozlar blankalari ishlab chiqarishni litsenziyalash;

- O'zbekiston Respublikasining rasmiy oltin-valuta rezervlarini, kelishuvga binoan hukumat rezervlarini qo'shgan holda saqlash va tasarruf etish;

- davlat budjetining kassa ijrosini Moliya vazirligi bilan birgalikda tashkil etishdan iborat ekanligi belgilab qo'yildi.

Bundan tashqari, mazkur qonunga muvofiq Markaziy bankka monetar siyosatni mustaqil amalga oshirishda quyidagi huquqlar berildi:

1. Muomaladagi pul massasini tartibga solish parametrlarini belgilash.

2. Tijorat banklari uchun majburiy zaxiralar me'yorlarini belgilash.


3. Markaziy bank qayta moliyalash stavkasini belgilash.

4. Tijorat banklari va nobank kredit tashkilotlari uchun iqtisodiy normativlarni belgilash.

5. Ochiq bozor operatsiyalarini amalga oshirish.

6. Ichki valuta bozorida operatsiyalarni amalga oshirish qoidalarini o'rnatish.

Monetar va bank islohotlarining uchinchi bosqichini o'z ichiga olgan 2000-2003-yillarda asosiy masala milliy valutaning almashinuv kursini erkinlashtirish va unifikatsiyalash masalalariga qaratildi. Shu davrda joriy operatsiyalar bo'yicha milliy valutaning chet el valutalariga erkin almashinuvini to'liq ta'minlash maqsadida Xalqaro Valuta Fondi ustavining VIII moddasi talablariga zid keluvchi barcha cheklovlar bekor qilindi. Buning natijasida 2003-yilda milliy valuta almashinuv kursining to'liq unifikatsiyalashuviga erishildi (2.2.1-chizma).



2.2.1-chizma. UZSning USDga nisbatan almashinuv kursi dinamikasi<sup>52</sup>

Ichki valuta bozorida amalga oshirilgan islohotlar esa mamlakatda inflatsiya darajasini keskin tushirish imkoniyatini berdi. Bundan tashqari, 2003-yil 4-fevralda qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining «Pul-kredit ko'rsatkichlarini tartibga solish mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 63-sonli qaroriga asosan kassa rejalarini nazorat qilish kabi eskirgan usullar bekor qilinib, uning o'rniga bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan, zamonaviy, tez ta'sirchan kuchga ega bo'lgan uslublar joriy etildi. Bu esa Markaziy bankka monetar siyosatning hevosita dastaklariga nisbatan uning bilvosita dastaklaridan kengroq foydalanishiga imkon yaratdi.

Monetar islohotlarning to'rtinchi bosqichi o'z ichiga 2003-2008 yillarni qamrab oldi. Shu davrda asosiy masala bank tizimi kapitallashtirishni o'stirishga, davlat banklarini xususiy lashtirish jarayonlarini jadallashtirishga, xususiy banklar va nobank kredit tashkilotlarini, jumladan lombardlar va mikroredit tashkilotlari faoliyatini tashkil etish va kengaytirishga,

<sup>52</sup> Muallif tomonidan Markaziy bank ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

fuqarolarning banklardagi omonatlarini sir saqlanishi va kafolatlanishi hamda kredit tarixi axborot tizimlarining yaratilishiga, tijorat banklarini ularga xos bo'lmagan funksiyalardan bosqichma-bosqich ozod etish vazifalarini hal etishga qaratildi.

Masalan, ushbu bosqichda «Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'risida», «Bank siri to'g'risida», «Mikrokredit tashkilotlari to'g'risida», «Mikromoliyalash to'g'risida», «Iste'mol krediti to'g'risida» va boshqa bir qator qonunlar va qonunosti me'yoriy hujjatlar qabul qilinib, monetar siyosatning prudensial asoslari yanada kuchaytirildi.

Monetar va bank tizimi islohotlarining beshinchi bosqichi 2008-yilda AQSh ipoteka bozorida boshlanib, keyinchalik jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroziga aylangan tanazzulning mamlakatimiz iqtisodiyotiga ta'sirini pasaytirish maqsadida davlatimiz tomonidan inqirozga qarshi chora-tadbirlar Dasturi qabul qilinishi bilan boshlanib hozirgi kungacha davom etmoqda. Mazkur jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etish, iqtisodiyot real sektori bazaviy tarmoqlarining barqaror ishlashini ta'minlash, aholi bandligiga ko'maklashish, eksport qiluvchilar, sanoatning yetakchi tarmoqlari korxonalari hamda kichik biznesni aniq manzilli qo'llab-quvvatlash maqsadida, 2008-yil 28-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4058-sonli «Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoniga muvofiq «Iqtisodiyotning real sektori bazaviy tarmoqlari korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi» (Inqirozga qarshi choralar Dasturi) qabul qilindi.

Inqirozga qarshi choralar Dasturiga muvofiq quyidagilar respublika iqtisodiyoti real sektori sohasida jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etishning hal qiluvchi omillari sifatida belgilab olingan:

1) iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarida modernizatsiya, texnik va texnologik qayta jihozlash jarayonlarini faollash-

tirish, sifatli, eksportga yo'naltirilgan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlaydigan zamonaviy moslashuvchan minitexnologiyalarni tatbiq etish;

2) ichki va tashqi bozorlarda mamlakatimiz ishlab chiqaruvchilari mahsulotlarining raqobatbardoshligini yanada oshirish, eksport qiluvchi korxonalar tomonidan yangi tovarlar turlarini sotish hajmlarini kengaytirish hamda mahsulot sotishning istiqbolli bozorlarini o'zlashtirish;

3) iqtisod qilishning qattiq tartibini joriy etish, jumladan, texnologik jarayonlarni ratsionalizatsiya qilish, ishlab chiqarishda materiallar, elektr va energiya sarfini hamda boshqa sarf-xarajatlarni kamaytirish hisobiga ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini keskin kamaytirish;

4) texnik va ishlab chiqarish intizomiga rioya qilish, mahsulot sifatini boshqarishning xalqaro standartlarini tatbiq etish;


5) moslashuvchan narx-navo siyosatini amalga oshirish, jahon bozorlarida narx-navo konyunkturasi tez o'zgarib borayotgan sharoitda eksport mexanizmlarini takomillashtirish.

Respublikamiz bank tizimi barqarorligini yanada mustahkamalash maqsadida inqirozga qarshi chora-tadbirlar dasturi doirasida mamlakatimizning yetakchi banklari kapitaliga qariyb 490,5 mlrd. so'mlik davlat mablag'lari yo'naltirilishi belgilandi. 2.2.2-chizmada tijorat banklari kapitaliga yo'naltirilgan davlat mablag'larining ishlatilish yo'nalishlarini ko'rishimiz mumkin.

Respublikamizning yetakchi tijorat banklari kapitaliga yo'naltirilgan mablag'larning 147 mlrd so'mi Asakabank, 120 mlrd so'mi Xalq banki, 65 mlrd so'mi Sanoatqurilishbank, 50 mlrd so'mi Agrobank va 36 mlrd so'mi Qishloqqurilishbank ustav kapitalini ko'paytirishga to'g'ridan to'g'ri davlat ulushi sifatida yo'naltirildi.

Tijorat banklari umumiy kapitalining 2009-2012-yillar davomida o'zgarishiga e'tibor beradigan bo'lsak, 2009-yil 1-yanvar holatiga bu ko'rsatkichning absolyut qiymati 2,1 trln so'mni, 2011-yil 1-yanvar holatiga esa 4,1 trln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2013-yilning 1-yanvar holatiga kelib bu

ko'rsatkich 6,58 trln so'mga yetdi (2.2.3-chizma). Ya'ni 2009-2012-yillar davomida tijorat banklarining umumiy kapitali uch barobardan oshib ketdi.



### 2.2.2-chizma.<sup>53</sup> Tijorat banklari ustav kapitaliga yo'naltirilgan maqsadli davlat mablag'larining ishlatilish yo'nalishlari

Banklarning kapitallashuvini oshirish orqali ularning barqarorligini kuchaytirishdan ko'zlangan asosiy maqsad iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishni kengaytirishga qaratildi.


Xususan, birgina 2012-yilning o'zida iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirilgan kreditlar hajmi 2011-yilga nisbatan 1,3 barobarga ko'paydi. Ushbu ajratilgan kreditlarning 76 foizdan ziyodi uch yildan ortiq muddatga berilgan uzoq muddatli kreditlardan iborat. Shuningdek, 2012-yilda mamlakatimiz iqtisodiyotiga 11,7 mlrd AQSh dollari miqdorida ichki va xorijiy investitsiyalar jalb etildi yoki bu boradagi ko'rsatkich 2011-yilga nisbatan 14 foizga o'sdi. Jami investitsiyalarning 22 foizdan yoki 2,5 mlrd AQSh dollaridan ortig'ini xorijiy inves-

<sup>53</sup> Chizma muallif tomonidan Markaziy bank ma'lumotlari asosida tayyorlangan.



titsiyalar, ularning 79 foizdan ko'prog'ini to'g'ridan to'g'ri xo'riji investitsiyalar tashkil etdi.<sup>54</sup>

(trln. so'm)



### 2.2.3-chizma. Tijorat banklari kapitalining o'sish dinamikasi<sup>55</sup>

Eksportchi korxonalarni qo'llab quvvatlash natijasida mamlakatimiz tashqi savdo aylanmasi 2009-yilda 2,3 mlrd, 2010-yilda 4,2 mlrd, 2011-yilda 2,2 mlrd va 2012-yilda 1,25 mlrd AQSh dollari miqdorida ijobiy saldogga ega bo'ldi.

Bundan tashqari Mikro kredit bank tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatiladigan mikromoliyaviy xizmatlarni yanada kengaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 10-noyabrdagi PF-4051-sonli «Mikrokreditbank» aksiyadorlik tijorat bankining tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash borasidagi faoliyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoniga asosan Mikro kreditbankning kichik


<sup>54</sup> Каримов И.А. «Бош мақсадимиз – кенг қўламли ислохотлар ва модернизация йўлини қатъият билан давом эттириш». Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2012 йилда мамлакатимизни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш йуналишлари ҳамда 2013 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган мажлисидаги маъруза. – «Халқ оғзи» газетаси, 2013 йил 19 январь.

<sup>55</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

biznes subyektlariga boshlang'ich sarmoyani shakllantirishga ajratiladigan kreditlari foiz stavkasi 5 foizdan 3 foizga, aylanma mablag'lar uchun 14 foizdan 7 foizga, mikrolizing xizmatlari uchun 7 foizdan 5 foizga pasaytirildi.

2011-yilning 1-yanvaridan boshlab Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasini 14 foizdan 12 foizga tushirilishi ham o'zining bir qator ijobiy natijalarini berdi. Xususan, 2009-2012-yillar davomida tijorat banklarining jami aktivlari qariyb 3 barobarga ko'payib, 2013-yilning 1-yanvariga kelib 35 trln 750 mlrd. so'mga yetdi (2.2.4-chizma).

(trln. so'm)



**2.2.4-chizma.** Tijorat banklari aktivlarining o'sish dinamikasi<sup>56</sup>

Inqirozga qarshi choralar daturida belgilangan vazifalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi natijasida mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining real o'sish sur'ati 2008-yilda 9,0 foizni, 2009-yilda 8,1 foizni, 2010-yilda 8,5 foizni, 2011-yilda 8,3 foizni, 2012-yilda esa 8,2 foizni tashkil etdi.

So'nggi 20 yil davomida O'zbekistonning monetar siyosatining maqsadi, vazifalari va metodlari tubdan o'zgarib, ko'p-

<sup>56</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

lab qo'lg'a kiritilgan ijobiy natijalar bilan birga qayd etish joizki, bugungi kunda quyidagi ayrim ma'muriy va iqtisodiy xarakterdagi o'z yechimini kutayotgan vazifalar saqlanib qolmoqda:

1. Tijorat banklarida korporativ boshqaruv tizimi to'la-qonli ishlayotgani yo'q.

2. Banklar bank faoliyatiga xos bo'lmagan ayrim nofunk-sional vazifalarni hanuzgacha bajarib kelmoqda.

3. Monetar tartibga solishning ayrim ma'muriy metod-laridan foydalanilmoqda.

4. Narx-navo va savdo-sotiq tizimini tartibga soluvchi qonunchilik bazasi to'liq yaratilmagan.

5. Ichki bozorda valuta ayirboshlash operatsiyalari bilan bog'liq ayrim masalalar to'lig'icha o'z yechimini topgani yo'q.

6. Davlat tasarrufidagi tijorat banklarini xususiylashtirish jarayonlari nihoyasiga yetmaganligi kabi masalalar shular shumlasidandir.

Ushbu vazifalarni hal etish masalasi monetar siyosatni yanada rivojlantirishning navbatdagi bosqichi vazifalari bo'lishi lozim, deb hisoblaymiz.

### 2.3. Fiskal siyosat va uning iqtisodiy o'sishga ta'siri

Respublika mustaqillikni qo'lga kiritgandan keyingi davrda mamlakat fiskal siyosati asosan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, uning bosh agenti sifatida esa O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan Davlat soliq qo'mitasi va Davlat bojxona qo'mitasi bilan birgalikda yuritilib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasida mustaqillikdan keyingi davrda amalga oshirilgan fiskal islohotlarni shartli ravishda ikki bosqichga bo'lib o'rganish mumkin.

Birinchi bosqich o'z ichiga 1992-2000-yillarni olib, bu davrda davlatning fiskal institutlari bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi va Davlat bojxona qo'mitasi tashkil etildi va fiskal siyosatni amalga oshirishning huquqiy asoslari yaratildi.

Dastlab, 1993-yil 6-mayda va yangi tahrirda 2003-yil 29-avgustda «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida»gi, 1997-yil 29-avgustda «Davlat soliq xizmati to'g'risida» va «Davlat bojxona xizmati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari hamda 1992-yil 23-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 553-sonli «O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi haqidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida»gi qarori qabul qilinishi O'zbekiston Respublikasi fiskal siyosatini yurituvchi davlat organlari faoliyatining huquqiy asoslarini tashkil etdi.

«O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida»gi qonunga muvofiq (14-modda) quyidagi masalalarni hal etish Vazirlar Mahkamasining mutlaq vakolatlari doirasiga kiritildi:

- O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetini ishlab chiqish va ijro etish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Hukumati tasarrufidagi aniq maqsadli davlat fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish masalalari;

- davlat qimmatli qog'ozlarini chiqarish hajmi hamda O'zbekiston Respublikasining davlat ichki va tashqi qarzi ko'lamini oshirish to'g'risidagi masalalar;

- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar stavkalarini belgilash hamda o'zgartirish to'g'risidagi masalalar shular jumlasidandir.

«O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi haqidagi Nizom»ning 2-bandiga muvofiq Moliya vazirligi respublikaning markaziy moliya-iqtisodiy organi sifatida O'zbekiston Respublikasining moliyaviy faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi. Shuningdek, Moliya vazirligi O'zbekiston Respublikasining vazifalari va funksiyalarini amalga oshirish uchun zarur moliyaviy negiz yaratishni, respublika budjetini ishlab chiqish va ijro etishni, uning daromad qismi barqarorligini ta'minlashni, valuta rejasini tuzish va ijro etishni, pul resurslaridan oqilona va tejab sarflashni ta'minlaydi.

Mazkur Nizomning 8-bandiga muvofiq Moliya vazirligining asosiy vazifalari:

- moliya tizimi, soliq, monopoliyaga qarshi va narx-navo siyosatining O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga faol ta'sir ko'rsatishini, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishini, milliy daromadning, korxonalar va tashkilotlar daromadlarining va boshqa moliyaviy resurslarning o'sishini ta'minlash, moliya-kredit vositalarining xo'jalik mexanizmining boshqa elementlari bilan aloqalarini mustahkamlash;

- respublikaning moliyaviy resurslarini ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlantirish va fan-texnika taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga jamlash, ijtimoiy rivojlanishni jadallashtirish, ma'lum maqsadga yo'naltirilgan yaxlit xalq xo'jaligi dasturlarini mablag' bilan ta'minlash, zarur moliya, valuta rezervlarini tashkil etish;

- moliya, budjet, valuta va soliqni rejalashtirish va mablag' bilan ta'minlash usullarini takomillashtirish;

- sug'urta munosabatlari barcha qatnashchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi hududidagi sug'urta tashkilotlari faoliyatini nazorat qilish;

- auditorlik tashkilotlari tomonidan litsenziya bitimlarida nazarda tutilgan litsenziya talablari va shartlariga rioya qilinishini nazorat qilish;

- korxonalar, vazirliklar, idoralar va davlat sug'urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etish va takomillashtirish ishlarini muvofiqlashtirish, xo'jalik yuritishning yangi shakllarini joriy etish sohasida mahalliy moliya organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish;

- soliq solish, monopoliyaga qarshi narx belgilash, sug'urta, valuta-moliya, auditorlik va tashqi iqtisodiy faoliyat, shuningdek, soliq maslahati bo'yicha faoliyat sohasida qonunchilik va me'yoriy aktlarni ishlab chiqishda qatnashish;

- moliya, soliq, monopoliyaga qarshi narx belgilash, sug'urta, valuta, auditorlik va tashqi iqtisodiy faoliyat, shuningdek, soliq maslahati bo'yicha faoliyat sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish;

- fuqarolarning pensiya ta'minoti sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqish;

- budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi daromadlari va xarajatlarining mutanosibligini ta'minlash;

- budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tomonidan unga yuklangan vazifalar va funksiyalarning, ayniqsa, pensiyalarni va boshqa tegishli to'lovlarni tayinlash va to'lashning belgilangan qoidalarini qo'llash yuzasidan bajarilishini muvofiqlashtirish va nazorat qilishdan iboratdir.

«Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi qonunning 4-moddasiga muvofiq Davlat soliq xizmati organlarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat ekanligi belgilab qo'yilgan:

- soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini, soliqlarning to'g'ri hisoblab chiqarilishini, budjet va davlat maqsadli jamg'armalariga to'liq hamda o'z vaqtida to'lanishini, shuningdek, fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallarining to'g'ri va to'liq hisoblab chiqarilishi hamda o'z vaqtida kiritilishini nazorat qilish;

- O'zbekiston Respublikasi soliq to'lovchilari identifikatsiya raqamlarining yagona reyestrini yuritish;

- soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlash, soliq to'lovchilarga soliqlar bo'yicha majburiyatlarni bajarishlarida yordam ko'rsatish;

- soliq siyosatining ro'yobga chiqarilishida bevosita qatnashish:

- soliq to'lovchilar, soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog'liq obyektlarning to'liq hamda o'z vaqtida hisobga olinishini ta'minlash;

- soliqlarga oid huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etish.

«Davlat bojxona xizmati to'g'risida»gi qonunning 1-moddasida bojxona organlari O'zbekiston Respublikasining yagona bojxona siyosatini amalga oshirish va iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish maqsadida tuzilishi belgilangan bo'lib, ushbu qonunning 4-moddasida bojxona organlarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat ekanligi belgilangan:

- O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va o'z vakolati doirasida uning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash;

- bojxona siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish;

- bojxona haqidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilish;

- bojxona to'lovlarini undirish;

- bojxona haqidagi qonun hujjatlari buzilishining, shu jumladan, kontrabandaning oldini olish, uni aniqlash va ularga chek qo'yish;

- tashqi iqtisodiy faoliyatga doir bojxona statistikasini hamda tovar nomenklaturasini yuritish;

- O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarining bojxona ishiga oid qismidan kelib chiqadigan majburiyatlar bajarilishini ta'minlash.

Fiskal islohotlarning ikkinchi bosqichi 2000-yildan boshlanib hozirgi kungacha davom etmoqda. Bu davrda Respublikada fiskal siyosatni amalga oshirishning xalqaro standartlariga o'tish, budjetlar klassifikatsiyasi, budjet tashkilotlari hisob-kitobi, davlat budjetining g'azna ijrosi va uni tartibga solish, nazorat qilish prinsiplari ishlab chiqildi. Fiskal islohotlarning ushbu bosqichida, ya'ni 2000-yil 14-dekabrda «Budjet tizimi

to'g'risida», 2004-yil 24-avgustda «Davlat budjetining g'azna ijrosi to'g'risida», 2006-yil 21-sentabrda «Soliq maslahati to'g'risida»gi yangi qonunlar qabul qilindi, shuningdek, 2008-yilning 1-yanvaridan boshlab yangi tahrirdagi «Soliq kodeksi» amalga kiritildi.

O'zbekiston Respublikasining «Budjet tizimi to'g'risida»gi qonunining asosiy vazifalari:

- O'zbekiston Respublikasining budjet tizimi tuzilishi va uni boshqarish asoslarini;
- Davlat budjetini tuzish prinsiplari va uning tuzilmasini;
- Davlat budjetini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish va ijro etish tartibini;
- Davlat budjetining daromadlarini shakllantirish va uning xarajatlarini amalga oshirish prinsiplarini;
- Davlat budjeti tuzilmasiga kiruvchi budjetlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni;
- Davlat budjeti mablag'lari bilan operatsiyalarni amalga oshirish jarayonida hisobga olish, hisobot va nazorat qilish tartibini belgilashdan iborat.

Mazkur qonunning 4-moddasiga muvofiq Budjet tizimi turli darajadagi budjetlar va budjet mablag'lari oluvchilar yig'indisini, budjetlarni tashkil etishni va tuzish prinsiplarini, budjet jarayonida ular o'rtasida, shuningdek, budjetlar hamda budjet mablag'lari oluvchilar o'rtasida vujudga keladigan o'zaro munosabatlarni o'zida ifodalaydi. Qonunning 5-moddasida Budjet tizimining asosiy prinsiplari belgilab qo'yilgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- budjet tasnifi tizimi, hisob-budjet hujjatlari va budjet jarayoni tuzilishining yagonaligi;
- budjet tuzilishining O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy tuzilishiga muvofiqligi;
- turli darajadagi budjetlarning o'zaro bog'liqligi;
- davlat budjeti balansiligi;
- davlat daromadlarini aniq manbalar bo'yicha va xarajatlarini yo'nalishlari (moddalari) bo'yicha rejalashtirish;
- davlat budjeti xarajatlarini budjetdan ajratiladigan tas-



diqlangan mablag'lar doirasida va xarajatlar smetalarida ko'rsatilgan maqsadlarda amalga oshirish;

- barcha darajadagi budjetlarning mustaqilligi.

«Budjet tizimi to'g'risida»gi qonunning 6 va 8-moddalarida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va Moliya vazirligining budjet tizimini boshqarish sohasidagi vakolatlari belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

- Davlat budjeti loyihasi ishlab chiqilishini tashkil etadi va uni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga taqdim etadi;

- Davlat budjetining ijrosini tashkil etadi;

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va davlat boshqaruvi boshqa organlarining Davlat budjetini ijro etish borasidagi ishlarini muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi;

- davlat maqsadli jamg'armalari mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibini belgilaydi;

- Davlat budjeti ijrosi to'g'risidagi hisobotni belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tasdig'iga kiritadi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi esa:

- Davlat budjeti loyihasini tayyorlaydi;

- Davlat budjeti mablag'larining tushumi va sarfi tartibini belgilaydi hamda ular ustidan nazoratni amalga oshiradi;

- respublika budjeti xarajatlarini amalga oshiradi;

- budjet tashkilotlarining xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini ro'yxatdan o'tkazadi;

- budjet mablag'lari oluvchilarning Davlat budjeti mablag'laridan foydalanishini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni, shuningdek, umummajburiy tUSDagi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qiladi.

«Budjet tizimi to'g'risida»gi qonunning 29-moddasiga muvofiq, Davlat budjeti O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilinishi belgilangan.

«Davlat budjetining g'azna ijrosi to'g'risida»gi qonunning asosiy maqsadi O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining (shu jumladan, davlat maqsadli jamg'armalarining) va budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'larining g'azna

ijrosi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Davlat budjeti g'azna ijrosining asosiy prinsiplari kassaning yagonaligi hamda buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etishning yagonaligiga asoslanadi. Mazkur qonunning 4-moddasiga muvofiq Davlat budjetining g'azna ijrosi – Davlat budjetining barcha daromadlarini yagona g'azna hisobvarag'iga kiritish, shuningdek, Davlat budjetining xarajatlarini shu hisobvaraقدan to'lashni ifoda etadi.

Davlat budjetining g'azna ijrosi G'aznachilik hamda uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar, shaharlardagi hududiy bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladi. «Davlat budjetining g'azna ijrosi to'g'risida»gi qonunning 7-moddasida G'aznachilikning asosiy vazifalari belgilangan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- Davlat budjetining kassa ijrosi.
- Davlat budjeti mablag'larining tushumi va sarfi ustidan nazoratni amalga oshirish.
- Davlat budjeti mablag'larini boshqarish, yagona g'azna hisobvarag'ini va hududiy g'azna hisobvaraqlarini yuritish.
- budjet mablag'lari oluvchining tovar yetkazib beruvchi (ish bajaruvchi, xizmat ko'rsatuvchi) bilan tuzilgan shartnomasini, shuningdek, buyurtmachining Davlat budjeti mablag'lari hisobidan kapital qurilish uchun tuzilgan shartnomasini majburiy ro'yxatdan o'tkazish.
- Davlat budjetida qaysi yuridik yoki jismoniy shaxslar uchun mablag'lar nazarda tutilgan bo'lsa, o'sha yuridik yoki jismoniy shaxslar nomidan va ularning topshirig'iga binoan to'lovlarni amalga oshirish.
- Davlat budjeti g'azna ijrosining buxgalteriya hisobini yuritish.
- Davlat budjetining ijrosi to'g'risidagi axborotni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va hisobotni tuzish.
- O'zbekiston Respublikasining davlat ichki va tashqi qarzlariga xizmat ko'rsatish, O'zbekiston Respublikasining kafolatlarini ijro etish.
- O'zbekiston Respublikasiga kelayotgan barcha turdagi, shu jumladan, nomoddiy shakldagi insonparvarlik yordami

hamda texnik ko'maklashish vositalarini to'liq va tizimli hisobga olish.

G'aznachilik o'zining Markaziy bankda ochilgan yagona g'azna hisobvarag'idagi va G'aznachilikning boshqa bank hisobvaraqlaridagi Davlat budjeti mablag'larini ularni Davlat budjetining xarajatlarini belgilangan muddatlarda amalga oshirish uchun yo'naltirish, shuningdek, Davlat budjeti bo'sh mablag'larini bank depozitlari va boshqa aktivlarga vaqtincha joylashtirish hamda ular hisobidan respublika budjetiga, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetiga, mahalliy budjetlarga, shuningdek, davlat maqsadli jamg'armalariga budjet ssudalari berish yo'li bilan boshqarib boradi.

«Soliq maslahati to'g'risida»gi qonunga muvofiq Soliq maslahati soliq maslahatchilari tashkilotining yuridik va jismoniy shaxslarga shartnoma asosida soliq maslahati bo'yicha xizmatlar ko'rsatish borasidagi faoliyatidir. Soliq maslahatining asosiy prinsiplari qonun ustuvorligi, mustaqillik va maxfiylik prinsiplaridan iborat. Mazkur qonunning 5-moddasiga asosan Soliq maslahati bo'yicha xizmatlar:

- soliq to'lovchilarga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish hamda to'lash masalalari bo'yicha maslahat berishni;

- soliq solish masalalari bo'yicha hujjatlar tuzishda yordam ko'rsatishni;

- sudda, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlarda soliq solish masalalari bo'yicha mijoz nomidan va uning topshirig'iga binoan vakillik qilishni o'z ichiga oladi.

«Soliq maslahati to'g'risida»gi qonunga muvofiq Soliq maslahatchilari tashkiloti soliq maslahati bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi tijorat tashkilotidir. Soliq maslahatchilari tashkiloti aksiyadorlik jamiyatidan tashqari istalgan tashkiliy-huquqiy shaklda tashkil etilishi va o'z faoliyatini amalga oshirishi mumkin. Soliq maslahatchilari tashkilotini davlat ro'yxatidan o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va uning hududiy bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladi. Bunda Soliq maslahatchilari tashkilotining rahbari soliq maslahatchisi bo'lishi kerak. Soliq maslahatchisi bu tegishli malaka sertifikatiga ega bo'lgan jismoniy shaxsdir.

2000-2012-yillar davomida davlatning fiskal siyosati, eng avvalo, soliqlar tarkibini takomillashtirish orqali ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlashga, iqtisodiyotni modernizatsiyalashga hamda aholining kam ta'minlangan qatlamlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga, maorif, fan sport va sog'liqni saqlash tizimini yaxshilashga qaratildi.

Birgina 2012-yilning o'zida soliq yukini kamaytirish siyosati davom ettirilib, kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun yagona soliq to'lovi stavkalari 6 foizdan 5 foizga, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining birinchi razryadi bo'yicha stavkasi 9 foizdan 8 foizga tushirildi.

Davlat jami xarajatlarining asosiy qismi, ya'ni qariyb 59,2 foizi ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy himoya qilish chora-tadbirlarini amalga oshirishga qaratildi, uning 34 foizidan ortig'i ta'lim, 14,5 foizdan ko'prog'i sog'liqni saqlash sohalarini moliyalashtirishga yo'naltirildi.<sup>57</sup>

2.3.1 va 2.3.2-diagrammalarda 2000-2012-yillarda davlat budjeti daromadlari va xarajatlari tarkibi o'zgarishi haqida ma'lumotlar<sup>58</sup> keltirilgan.

2.3.1-diagramma ma'lumotlariga ko'ra, 2000-yilga nisbatan 2012-yilda davlat budjeti daromadlari tarkibida to'g'ri soliqlar, egri soliqlar hamda hoshqa soliqlar va majburiy to'lovlarning ulushi kamaygan bo'lsa, mol-mulk va resurs soliqlarining ulushi ko'payganligini ko'rish mumkin. Ushbu holat davlatning fiskal siyosatidagi tarkibiy o'zgarishlarni ifoda etadi.


---

<sup>57</sup> Каримов И.А. «Беш мақсадимиз – кенг қўламли ислохотлар ва модернизация йўлини қатъият билан давом эттириш». Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2012 йилда мамлакатимизни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш йўндалари ҳамда 2013 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган мажлисидаги маъруза. – «Халқ сўзи» газетаси, 2013 йил 19 январь.

<sup>58</sup> Ushbu diagramma O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

### 2.3.1-diagramma

#### 2000-2012-yillarda O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlari tarkibining o'zgarishi



2.3.2-diagramma ma'lumotlariga ko'ra, 2000 yilga nisbatan 2012 yilda davlat budjeti xarajatlari tarkibida ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport va fan uchun amalga oshirilgan sarf-xarajatlar ulushi ko'paygan. Buning asosiy sababi – mamlakat iqtisodiy qudrati yuksalishi natijasida aholining bilim darajasi va sog'ligi sifatini yaxshilash hamda zamonaviy fan-texnikani taraqqiy ettirishga davlat tomonidan e'tiborning kuchaytirilayotganligidir. Shuningdek, ushbu davrda kam ta'minlangan aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga ajratilayotgan mablag'larning davlat budjetidagi ulushi ham ko'paygan.


O'z navbatida, iqtisodiyotga xarajatlar, investitsiyalar hamda boshqa xarajatlarning ulushi esa kamaygan. Buning sababini davlat boshqaruv xarajatlarining optimallashtirilishi va uning iqtisodiyotga to'g'ridan to'g'ri aralashuvining qisqarayotganligi bilan izohlash mumkin.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda inqirozga qarshi choralar daturiga muvofiq amalga oshirilgan fiskal siyosat doirasida davlat budjeti ijobiy saldo bilan yakunlanib

kelmoqda. Masalan, birgina 2012-yil<sup>59</sup> yakunlariga ko'ra, O'zbekiston davlat budjetining daromadlar qismi bo'yicha ko'rsatkichlar to'liq bajarilib, erishilgan profitsit YaIMga nisbatan 0,4 foizni tashkil etdi.

### 2.3.2-diagramma

#### 2000-2010-yillarda O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti xarajatlari tarkibining o'zgarishi



So'nggi 20 yil davomida O'zbekistonning fiskal siyosatining maqsadi, vazifalari va metodlari tubdan o'zgarib, ko'plab qo'lga kiritilgan ijobiy natijalar bilan birga qayd etish joizki, bugungi kunda quyidagi ayrim ma'muriy va iqtisodiy xarakterdagi o'z yechimini kutayotgan vazifalar saqlanib qolmoqda:

1. Ayrim soliq turlari bo'yicha soliq to'lovchi subyektlarning nomunosib tanlanganligi (ya'ni iste'molchilar to'lashi

<sup>59</sup> Каримов И.А. «Бosh мақсадимиз – кенг кўламли ислохотлар ва модернизация йулини катъият билан давом эттириш». Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маъкамасининг 2012 йилда мамлакатимизни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ҳамда 2013 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган мажлисидаги мазъуз. – «Халқ сўзи» газетаси, 2013 йил 19 январь.

lozim bo'lgan soliqlarning ishlab chiqaruvchilardan undirishi).

2. Qishloq xo'jaligida band bo'lgan aholining qishloq xo'jaligi mavsumidan tashqari bo'sh bo'lgan vaqtini samarali ish bilan band qilish mexanizmining yo'lga qo'yilmaganligi.

3. Davlat g'aznachiligi tizimida budget tashkilotlarining yagona bank hisobvaraqlarini yuritish mexanizmining to'liq tartibga solinmaganligi.

4. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hamda sud qarorlariga muvofiq xo'jalik yurituvchi subyektlar bank hisobvaraqlaridan mablag'larni undirishda ayrim muammolarning mavjudligi shular jumlasidandir.

Ushbu vazifalarni hal etish masalasi fiskal siyosatning yangi rivojlanish bosqichidagi vazifalari bo'lishi lozim deb hisoblaymiz.

### III BOB. O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINING BARQAROR O'SISHINI EKONOMETRIK MODELASHTIRISH

---

Makroiqtisodiy siyosatning eng asosiy vazifasi aholi turmush darajasini yaxshilash va uning daromadlari ko'payishini ta'minlash maqsadida iqtisodiy o'sishga erishishning eng maqbul strategiyasini tanlash va amalga oshirishdan iborat. Shunday ekan, makroiqtisodiy siyosatni amalga oshirishda iqtisodiy o'sishning eng yuqori darajasiga erishishning samarali yo'llarini to'g'ri tanlash va uni amalda qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur bobda biz O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlashning ekonometrik modelini tuzishga harakat qilamiz. Ekonometrik modelni tuzishda iqtisodiy, statistik va matematik modellashtirish metodlaridan foydalanamiz.

O'zbekiston iqtisodiyotini barqaror o'sishining qisqa, o'rta va uzoq muddatli istiqbollari iqtisodiy o'sish ko'rsatkichining ham miqyosiy va ham sifat ko'rsatkichlari bilan belgilanadi. Ya'ni iqtisodiy o'sish ko'rsatkichini aholining real daromadlari va yalpi ichki mahsulotning aholi jon boshiga taqsimlagandagi ko'rsatkichlari bilan bir xil ravishda proporsional o'sishiga erishilishi o'ta muhimdir.

Bundan tashqari mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligi, iqtisodiy globallashuv sharoitida uning rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti bilan keskin farqining yo'qligi milliy iqtisodiyotga beriladigan bahoning ijobiy bo'lishini ta'minlaydi.

O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror o'sishini ekonometrik modellashtirishda biz asosiy ko'rsatkichlar sifatida quyidagi 13 ta makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni tanlab oldik:

$g_y$  – Iqtisodiy o'sish ko'rsatkichi (YaIMning yillik real o'sishi/pasayishi, foizda).



$\omega$  – Yalpi investitsiyalar (YaIMga nisbatan foizda).

$\zeta$  – Yalpi jamg'armalar (YaIMga nisbatan foizda).

$\pi$  – Inflatsiya darajasi (iste'mol baholarining yillik o'zgarishi indeksi, foizda).

$\tau$  – Tovarlar va xizmatlar importi (yillik o'zgarishi, foizda).

$\chi$  – Tovarlar va xizmatlar eksporti (yillik o'zgarishi, foizda).

$\gamma$  – Ishsizlik darajasi (foizda).

$\sigma$  – Davlat budjeti daromadlarining YaIMdagi salmog'i (*soliq yuki*, foizda).

$\lambda$  – Joriy operatsiyalar balansi saldosi (YaIMga nisbatan foizda).

$\kappa$  – Davlat tashqi qarzi (YaIMga nisbatan foizda).

$\delta$  – Davlat budjeti sof saldosi (YaIMga nisbatan foizda).

$i$  – O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalash stavkasi (yillik o'rtacha ko'rsatkichi, foizda).

$\epsilon$  – O'rtacha tortilgan valuta ayirboshlash kursi (AQSh dollariga nisbatan o'zbek so'mining yillik o'rtacha tortilgan kursi).

Regression tahlil quyidagi ma'lumotlarga asosan amalga oshiriladi.

Xalqaro valuta fondining rasmiy saytidan olingan quyidagi ma'lumotlar Respublikamiz rasmiy ommaviy axborot vositalarida nashr etilgan ma'lumotlardan farqlanadi, ya'ni mamlakatimizda erishilgan real ijobiy ko'rsatkichlar xalqaro moliyaviy institutlar va xorijiy mutaxassislar nigohida haqiqatga nisbatan kamroq baholangan (3.1-jadval).

Biz mazkur bobda nomi qayd etilgan rasmiy manba ma'lumotlaridan foydalanishimizdan ko'zlangan maqsad birinchidan, xalqaro moliyaviy institutlar va xorijiy mutaxassislar tomonidan berilgan baho qanday bo'lishidan qat'iy nazar mamlakatimiz iqtisodiy potentsiali va iqtisodiy o'sish imkoniyatlari yuqori ekanligini ilmiy jihatdan isbotlash, ikkinchidan, O'zbekiston iqtisodiyotining o'sishini ekonometrik model-lashtirish metodikasini talaba va tadqiqotchilar uchun nazariy jihatdan qo'llanma sifatida ishlab chiqishdan iborat.

O'zbekiston iqtisodiyotining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari<sup>1</sup>

№	Ko'rsatkichlar			1994	1995	1996	1997	1998	1999	2000	2001	2002	2003	2004	2005	2006	2007	2008	2009	2010	2011	2012
			Foizda uzgarishi																			
1	Iqtisodiy o'sish	%	Foizda uzgarishi	-5,2	-0,9	1,7	5,2	4,3	4,3	3,8	4,2	4,0	4,2	7,4	7,0	7,5	9,5	9,0	8,1	8,5	8,3	7,4
2	Yalpi investitsiyalar	ω	YalMga nisbatan foizda	18,2	24,2	23,0	18,9	20,9	17,1	19,6	21,1	21,2	20,8	24,5	28,0	29,6	30,0	31,0	31,0	30,7	30,9	30,9
3	Yalpi jum'armalar	ς	YalMga nisbatan foizda	20,0	24,0	16,0	14,9	20,2	16,1	21,4	20,1	22,4	26,6	31,7	35,7	38,7	37,3	39,7	33,2	36,8	36,7	35,6
4	Inflatsiya darajasi	π	Foizda	1569,3	304,6	54,0	70,9	29,0	29,1	25,0	27,3	27,3	11,6	6,6	10,0	14,2	12,3	12,7	14,1	9,4	12,8	12,9
5	Tovarlari va xizmatlar importi	τ	Yillik foizda o'zgarishi	-17,4	24,3	32,4	-20,5	-18,1	-4,1	-0,5	8,5	-11,0	4,4	17,8	6,1	13,9	40,8	29,6	10,8	-6,9	16,5	13,2
6	Tovarlari va xizmatlar eksporti	ζ	Yillik foizda o'zgarishi	-1,5	18,9	0,9	-6,1	6,7	-18,6	10,9	18,4	-9,9	9,0	17,1	-4,3	1,2	14,4	15,6	0,6	-8,4	-7,1	13,6
7	Ishlatilgan darajasi	γ	Foizda	0,3	0,3	0,3	0,3	0,4	0,4	0,4	0,4	0,4	0,3	0,4	0,3	0,2	0,2	0,1	0,2	0,2	0,2	0,2
8	Davlat budjeti daroomadlari (soliq yuki)	σ	YalMga nisbatan foizda	28,4	34,6	42,0	37,3	40,2	38,5	36,6	34,3	35,5	33,4	32,2	30,8	34,4	35,6	40,7	36,7	37,0	40,2	38,0
9	Joriy operatsiyalar balansi (saldo)	λ	YalMga nisbatan foizda	1,8	-0,2	-7,0	-4,0	-0,7	-1,0	1,8	-1,0	1,2	5,8	7,2	7,7	9,1	7,3	8,7	2,2	6,2	5,8	4,7
10	Davlat tashqi qarz	κ	YalMga nisbatan foizda	0,0	0,0	0,0	0,0	29,4	29,4	42,1	59,4	54,6	41,6	35,1	28,2	21,3	15,8	12,7	11,0	10,0	9,1	8,8
11	Davlat budjeti saldosi	θ	YalMga nisbatan foizda	-5,6	-3,8	-7,9	-2,2	-3,8	-3,0	-2,5	-1,4	-1,9	0,2	0,6	1,2	5,4	5,2	10,2	2,8	4,9	9,0	3,0
12	Markaziy bank qayta moliyalash stavkasi (foizda)	ι	Foizda	225	176,7	73	38,3	36	36	32,3	26,8	34,5	27,1	17,9	16	14	14	14	14	14	12	12
13	Vahita ayit- beshbesh kursi	ε	UZS/USD	9,9	29,8	40,2	66,4	94,7	124,9	237,3	423,4	771,5	971,3	1021,7	1112,7	1219,2	1263,6	1319,6	1465,7	1586,0	1714,3	1885,4

Manba: International Monetary Fund, World Economic Outlook Database, October 2012 (<http://www.imf.org>)

Shundan kelib chiqib, yuqoridagi ma'lumotlar asosida O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror o'sishini ekonometrik modellashtirishda regression tahlil usulidan foydalanamiz. Bunda modelni tuzish uchun quyidagi ketma-ketlikdagi ishlarni amalga oshiramiz:

1. Dastlab,  $g_y$  - Iqtisodiy o'sish ko'rsatkichining qolgan barcha makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bilan chiziqli korellyatsion bog'liqligini tekshirib chiqamiz.

2. Regression tahlil asosida har bir makroiqtisodiy ko'rsatkichning  $g_y$  ko'rsatkichi bilan bog'liqligi korellyatsiya koeffitsiyenti - « $R^2$ », regressiya koeffitsiyenti - « $b_1$ », T-statistika ko'rsatkichi - « $t Stat$ », muhimlik darajasi - « $P-value$ », ehtimollikning 95 foizlik eng yuqori va quyi chegaralarida «Nol gepoteza»ni testdan o'tkazamiz. «Nol gepoteza» -  $H_0: \beta = 0$  bo'lganda tasdiqlanadi va aksincha,  $\beta \neq 0$  bo'lganda inkor etiladi.

Bunda yuqoridagi ko'rsatkichlardan birortasida yoki bir nechtasida yoxud barchasida quyidagi shartlar bajarilsa, ya'ni « $R^2$ » ko'rsatkichi «Bir»dan kichik bo'lgani holda «Nol» soniga yaqinroq bo'lsa, « $t Stat$ » ko'rsatkichi o'zining kritik musbat ko'rsatkichidan kichik yoki manfiy kritik ko'rsatkichidan katta bo'lsa, « $P-value$ » ko'rsatkichi o'zining muhimlik darajasi (0,05)dan yuqori bo'lsa va ehtimollikning 95 foizlik eng yuqori va quyi chegaralari o'z ichiga «Nol» qiymatni olsa «Nol gepoteza» tasdiqlanadi, ya'ni tegishli tahlil qilinayotgan makroiqtisodiy ko'rsatkichning  $g_y$  ko'rsatkichi bilan muhim aloqadorlik mavjud emasligi isbotlanadi. Aks holda esa «Nol gepoteza» inkor etiladi va tegishli tahlil qilinayotgan makroiqtisodiy ko'rsatkichning  $g_y$  ko'rsatkichi bilan muhim aloqadorligi isbotlanadi.

3.  $g_y$  ko'rsatkichi bilan muhim aloqadorligi mavjudligi isbotlangan makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni ko'p o'zgaruvchan regression tahlilning «*Best Subsets Analysis*» metodi asosida yakuniy testdan o'tkazamiz.

4. Yakuniy test natijalari asosida aniqlangan makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning  $g_y$  ko'rsatkichi bilan muhim aloqadorligi mavjudligi yuqorida - 2-bandda qayd etilgan tartibda «Nol


*gipoteza*»ni tasdiqlash yoki inkor etish orqali testdan o'tkaziladi.

5. Test natijalari bo'yicha iqtisodiy o'sish ko'rsatkichi bilan muhim aloqadorligi mavjudligi isbotlangan makroiqtisodiy ko'rsatkichlar ekonometrik modelga kiritiladi, ya'ni iqtisodiy o'sishning matematik modeli yaratiladi.

6. Yaratilgan model yordamida O'zbekiston iqtisodiyotini barqaror o'sishining kelajakdagi istiqholini prognoz qilishimiz mumkin bo'ladi.

Yuqoridagi tahliliy ishlarning barchasini «Microsoft Office Excel» kompyuter dasturining «PHStat 2» loyihasida amalga oshiramiz. «PHStat 2» kompyuter dasturida amalga oshirgan tahlillarimiz natijalari quyidagilardan iborat:


# 1. Iqtisodiy o'sish va yalpi investitsiyalar:



## Regression tahlil natijalari:

$n$	$R^2$	$b_1$	$t$ Stat	$P$ -value	Quyida chegara	Yuqori chegara
19	0,487	12,227	4,013	0,001	5,799	18,566
«Nol gepoteza»: Aks holda:		$H_0: \beta = 0$ $H_1: \beta \neq 0$	Kritik musbat ko'rsatkichidan (2,1098)katta	Muhimlik darajasidan (0,05) kichkina	Ishonchlik intervalida nol qiymat mavjud emas	
Xulosa:			«Nol gepoteza» inkor etiladi	Iqtisodiy o'sish ko'rsatkichi va yalpi investitsiyalar ko'rsatkichi o'rtasida muhim aloqadorlik mavjud		


## 2. Iqtisodiy o'sish va yalpi jamg'armalar:



### Regression tahlil natijalari:

$n$	$R^2$	$b_1$	$t$ Stat	$P$ -value	Quyida chegara	Yuqorida chegara
19	0,448	7,330	3,714	0,002	3,166	11,494
«Nol gepoteza»: Aks holda:		$H_0: \beta = 0$ $H_1: \beta \neq 0$	Kritik musbat ko'rsatkichidan (2,1098) katta	Muhimlik darajasidan (0,05) kichik	Ishonchlilik intervalida nol qiymati mavjud emas	
Xulosa:			«Nol gepoteza» inkor etiladi	Iqtisodiy o'sish ko'rsatkichi va yalpi jamg'armalar ko'rsatkichi o'rtasida muhim aloqadorlik mavjud		

### 3. Iqtisodiy o'sish va inflatsiya darajasi:




#### Regression tahlil natijalari:

$n$	$R^2$	$b_1$	$t$ Stat	$P$ -value	Quyi chegara	Yuqori chegara
19	0,837	-2,540	-9,329	0,000	-3,114	-1,965
«Nol gepoteza»: Aks holda:	$H_0: \beta = 0$ $H_1: \beta \neq 0$	Kritik manfiy ko'rsatkichidan (-2,1098) kichik	Muhimlik darajasidan (0,05) kichik	Ishonchlilik intervalida nol qiymati mavjud emas		
<b>Xulosa:</b>		«Nol gepoteza» inkor etiladi	Iqtisodiy o'sish ko'rsatkichi va inflatsiya darajasi ko'rsatkichi o'rtasida muhim aloqadorlik mavjud			

#### 4. Iqtisodiy o'sish va tovarlar (xizmatlar) importi:

	$g_y$	$r^{1/3}$
1994	-5,2	-2,59
1995	-0,9	2,91
1996	1,7	3,19
1997	5,2	-2,74
1998	4,3	-2,62
1999	4,3	-1,60
2000	3,8	-0,79
2001	4,2	2,04
2002	4,0	-2,22
2003	4,2	1,64
2004	7,4	2,61
2005	7,0	1,83
2006	7,5	2,40
2007	9,5	3,44
2008	9,0	3,09
2009	8,1	2,21
2010	8,5	-1,90
2011	8,3	2,55
2012	7,4	2,36




#### Regression tahlil natijalari:

$n$	$R^2$	$b_1$	$t$ Stat	P-value	Quyi chegara	Yuqori chegara
19	0,132	0,569	1,607	0,127	-0,178	1,317
«Nol gepoteza»: Aks holda:	$H_0: \beta = 0$ $H_1: \beta \neq 0$		Kritik musbat ko'rsatkichidan (2,1098) kichik	Muhimlik darajasidan (0,05) katta	Ishonchlilik intervalida nol qiymati mavjud	
Xulosa:			«Nol gepoteza» tasdiqlanadi	Iqtisodiy o'sish ko'rsatkichi va tovarlar (xizmatlar) importi ko'rsatkichi o'rtasida muhim aloqadorlik mavjud emas		



## 5. Iqtisodiy o'sish va tovarlar (xizmatlar) eksporti:


	$g_y$	$\lambda^{1,3}$
1994	-5,2	-0,51
1995	-0,9	6,30
1996	1,7	0,30
1997	5,2	-2,02
1998	4,3	2,23
1999	4,3	-6,21
2000	3,8	3,65
2001	4,2	6,13
2002	4,0	-3,29
2003	4,2	2,99
2004	7,4	5,68
2005	7,0	-1,45
2006	7,5	0,42
2007	9,5	4,78
2008	9,0	5,19
2009	8,1	0,21
2010	8,5	-2,81
2011	8,3	-2,37
2012	7,4	4,54



### Regression tahlil natijalari:

$n$	$R^2$	$b_1$	$t$ Stat	$P$ -value	Quyidagi chegara	Yuqori chegara
19	0,000	0,019	0,080	0,937	-0,490	0,528
«Nol gepoteza»: Aks holda:		$H_0: \beta = 0$ $H_1: \beta \neq 0$	Kritik musbat ko'rsatkichidan (2,1098) kichik	Muhimlik darajasidan (0,05) katta	Ishonchlik intervalida nol qiymati mavjud	
Xulosa:			«Nol gepoteza» tasdiqlanadi	Iqtisodiy o'sish ko'rsatkichi va tovarlar (xizmatlar) eksporti ko'rsatkichi o'rtasida muhim aloqadorlik mavjud emas		

## 6. Iqtisodiy o'sish va ishsizlik darajasi:




### Regression tahlil natijalari:

$n$	$R^2$	$b_1$	$t$ Stat	$P$ -value	Quyi chegara	Yuqori chegara
19	0,1657	-15,968	-1,833	0,084	-34,342	2,406
«Nol gepoteza»: Aks holda:		$H_0: \beta = 0$ $H_1: \beta \neq 0$	Kritik manfiy ko'rsatkichidan (-2, 1315) katta	Muhimlik darajasidan (0,05) katta	Ishonchlilik intervalida nol qiymati mavjud	
<b>Xulosa:</b>			«Nol gepoteza» tasdiqlanadi			
			Iqtisodiy o'sish ko'rsatkichi va ishsizlik darajasi ko'rsatkichi o'rtasida muhim aloqadorlik mavjud emas			

## 7. Iqtisodiy o'sish va davlat budjeti daromadlari:

	$g_y$	$\ln(\sigma)$
1994	-5.2	3.345
1995	-0.9	3.544
1996	1.7	3.737
1997	5.2	3.520
1998	4.3	3.595
1999	4.3	3.651
2000	3.8	3.600
2001	4.2	3.534
2002	4.0	3.569
2003	4.2	3.509
2004	7.4	3.471
2005	7.0	3.427
2006	7.5	3.538
2007	9.5	3.572
2008	9.0	3.706
2009	8.1	3.603
2010	8.5	3.611
2011	8.3	3.694
2012	7.4	3.637




### Regression tahlil natijalari:

$n$	$R^2$	$b_1$	$t$ Stat	$P$ -value	Quvi chegara	Yuqori chegara
19	0,145	14,072	1,699	0,108	-3,401	31,545
«Nol gepoteza»: Aks holda:		$H_0: \beta = 0$ $H_1: \beta \neq 0$	Kritik musbat ko'rsatkichidan (2,1098) kichik	Muhimlik darajasidan (0,05) katta	Ishonchlilik intervalida nol qiyamati mavjud	
<b>Xulosa:</b>			«Nol gepoteza» tasdiqlanadi	Iqtisodiy o'sish ko'rsatkichi va davlat budjeti daromadlari o'rtasida muhim aloqadorlik mavjud emas		

## 8. Iqtisodiy o'sish va joriy operatsiyalar balansi saldosini:


	$g_t$	$\lambda$
1994	-5.2	1.8
1995	-0.9	-0.2
1996	1.7	-7.0
1997	6.2	-4.0
1998	4.3	-0.7
1999	4.3	-1.0
2000	3.8	1.8
2001	4.2	-1.0
2002	4.0	1.2
2003	4.2	5.8
2004	7.4	7.2
2005	7.0	7.7
2006	7.5	9.1
2007	9.5	7.3
2008	9.0	8.7
2009	8.1	2.2
2010	8.5	6.2
2011	8.3	5.8
2012	7.4	4.7



### Regression tahlil natijalari:

$n$	$R^2$	$b_1$	$t$ Stat	$P$ -value	Quyi chegara	Yuqori chegara
19	0,326	0,466	2,867	0,011	0,123	0,809
«Nol gepoteza»: Aks holda:		$H_0: \beta = 0$ $H_1: \beta \neq 0$	Kritik musbat ko'rsatkichidan (2,1098) katta	Muhimlik darajasidan (0,05) kichik	Ishonchlilik intervalida nol qiymati mavjud emas.	
Xulosa:			«Nol gepoteza» inkor etiladi	Iqtisodiy o'sish ko'rsatkichi va joriy operatsiyalar balansi saldosini o'rtasida muhim aloqadorlik mavjud		

## 9. Iqtisodiy o'sish va davlat tashqi qarzi:




### Regression tahlil natijalari:

$n$	$R^2$	$b_1$	$t$ Stat	P-value	Quyi chegara	Yuqori chegara
19	0,013	0,089	0,466	0,647	-0,314	0,492
«Nol gepoteza»: Aks holda:		$H_0: \beta = 0$ $H_1: \beta \neq 0$	Kritik musbat ko'rsatkichidan (2,1098) kichik	Muhimlik darajasidan (0,05) katta	Ishonchlilik intervalida nol qiymati mavjud	
Xulosa:			«Nol gepoteza» tasdiqlanadi	Iqtisodiy o'sish ko'rsatkichi va davlat tashqi qarzi ko'rsatkichi o'rtasida muhim aloqadorlik mavjud emas		

## 10. Iqtisodiy o'sish va davlat budjeti saldosi:


	$g_t$	$\delta$
1994	-5.2	-5.6
1995	-0.9	-3.8
1996	1.7	-7.9
1997	5.2	-2.2
1998	4.3	-3.8
1999	4.3	-3.0
2000	3.8	-2.5
2001	4.2	-1.4
2002	4.0	-1.9
2003	4.2	0.2
2004	7.4	0.6
2005	7.0	1.2
2006	7.6	5.4
2007	9.5	5.2
2008	9.0	10.2
2009	8.1	2.8
2010	8.5	4.9
2011	8.3	9.0
2012	7.4	3.0



### Regression tahlil natijalari:

$n$	$R^2$	$b_1$	$t$ Stat	$P$ -value	Quyidagi chegara	Yuqori chegara
19	0,641	0,607	5,508	0,000	0,374	0,839
«Nol gepoteza»: Aks holda:		$H_0: \beta_1=0$ $H_1: \beta_1 \neq 0$	Kritik musbat ko'rsatkichidan (2,1098) katta	Muhimlik darajasidan (0,05) kichik	Ishonchlik intervalida nol qiymati mavjud emas	
<b>Xulosa:</b>		«Nol gepoteza» inkor etiladi		Iqtisodiy o'sish ko'rsatkichi va davlat budjeti saldosini ko'rsatkichi o'rtasida muhim aloqadorlik mavjud		


## 11. Iqtisodiy o'sish va Markaziy bank qayta moliyalash stavkasi:



**Regression tahlil natijalari:**

$n$	$R^2$	$b_1$	$t$ Stat	$P$ -value	Quyi chegara	Yuqori chegara
19	0,932	-4,141	-15,298	0,000	-4,712	-3,570
«Nol gepoteza»: Aks holda:		$H_0: \beta_1=0$ $H_1: \beta_1 \neq 0$	Kritik manfiy ko'rsatkichidan (-2,1098) kichik	Muhimlik darajasidan (0,05) kichik	Ishonchlilik intervalida nol qiymati mavjud emas	
Xulosa:			«Nol gepoteza» inkor etiladi.	Iqtisodiy o'sish ko'rsatkichi va Markaziy bank qayta moliyalashtirish stavkasi o'rtasida muhim aloqadorlik mavjud		

## 12. Iqtisodiy o'sish va valuta ayirboshlash kursi:



### Regression tahlil natijalari:

$n$	$R^2$	$b1$	$t$ Stat	$P$ -value	Quyi chegara	Yuqori chegara
19	0,784	2,003	7,859	0,000	1,465	2,540
«Nol gepoteza»: Aks holda:		$H_0: \beta_1 = 0$ $H_1: \beta_1 \neq 0$	Kritik musbat ko'rsatkichidan (2,1098) katta	Muhimlik darajasidan (0,05) kichik	Ishonchlilik intervalida nol qiymati mavjud emas	
Xulosa:		«Nol gepoteza» inkor etiladi		Iqtisodiy o'sish ko'rsatkichi va o'rtacha tortilgan valuta ayirboshlash kursi o'rtasida muhim aloqadorlik mavjud		



Tahlil natijalariga ko'ra  $g_y$  – Iqtisodiy o'sish ko'rsatkichi bilan yuqoridagi 12 ta makroiqtisodiy ko'rsatkichdan faqat 7 tasi, ya'ni  $\omega$  – Yalpi investitsiyalar,  $\zeta$  – Yalpi jamg'armalar,  $\pi$  – Inflatsiya darajasi,  $\lambda$  – Joriy operatsiyalar balansi saldosi,  $\delta$  – Davlat budjeti saldosi,  $i$  – Markaziy bank qayta moliyalash stavkasi,  $\varepsilon$  – O'rtacha tortilgan valuta ayirboshlash kursi o'rtasida muhim aloqadorlik mavjudligi aniqlandi.

Navbatdagi amalga oshiriladigan tahlilda regression tahlilning «Best Subsets Analysis» usuli asosida  $g_y$  – Iqtisodiy o'sish ko'rsatkichining yuqoridagi muhim aloqadorligi mavjud 7 ta makroiqtisodiy ko'rsatkich bilan bog'liqligi tahlil qilinadi.

Regression tahlilning ma'lumotlar bazasini 3.2-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar tashkil etadi.

Tahlil natijalariga muvofiq  $g_y$  – Iqtisodiy o'sish ko'rsatkichining  $\pi$  – Inflatsiya darajasi,  $\lambda$  – Joriy operatsiyalar balansi saldosi va  $\delta$  – Davlat budjeti saldosi ko'rsatkichlari bilan muhim aloqadorligi mavjudligi aniqlandi.

### 3.2-jadval

#### «Best Subsets Analysis» regression tahlil ma'lumotlar bazasi

yy	$g_y$	$\text{Ln}(\omega)$	$\text{Ln}(\zeta)$	$\text{Ln}(\pi)$	$\lambda$	$\delta$	$\text{Ln}(i)$	$\text{Ln}(\varepsilon)$
1994	-5,2	2,9	3,0	7,4	1,8	-5,6	5,4	2,3
1995	-0,9	3,2	3,2	5,7	-0,2	-3,8	5,2	3,4
1996	1,7	3,1	2,8	4,0	-7,0	-7,9	4,3	3,7
1997	5,2	2,9	2,7	4,3	-4,0	-2,2	3,6	4,2
1998	4,3	3,0	3,0	3,4	-0,7	-3,8	3,6	4,6
1999	4,3	2,8	2,8	3,4	-1,0	-3,0	3,6	4,8
2000	3,8	3,0	3,1	3,2	1,8	-2,5	3,5	5,5
2001	4,2	3,0	3,0	3,3	-1,0	-1,4	3,3	6,0
2002	4,0	3,1	3,1	3,3	1,2	-1,9	3,5	6,6
2003	4,2	3,0	3,3	2,4	5,8	0,2	3,3	6,9
2004	7,4	3,2	3,5	1,9	7,2	0,6	2,9	6,9
2005	7,0	3,3	3,6	2,3	7,7	1,2	2,8	7,0
2006	7,5	3,4	3,7	2,7	9,1	5,4	2,6	7,1
2007	9,5	3,4	3,6	2,5	7,3	5,2	2,6	7,1
2008	9,0	3,4	3,7	2,5	8,7	10,2	2,6	7,2
2009	8,1	3,4	3,5	2,6	2,2	2,8	2,6	7,3
2010	8,5	3,4	3,6	2,2	6,2	4,9	2,6	7,4
2011	8,3	3,4	3,6	2,6	5,8	9,0	2,5	7,4
2012	7,4	3,4	3,6	2,6	4,7	3,0	2,5	7,5

**Regression tahlil natijalari quyidagilardan iborat:**

Ko'rsatkichlar	n	R <sup>2</sup>	b <sub>1</sub>	t Stat	P-value	Quyidagi chegara 95%	Yuqoridagi chegara 95%
$g_y$ – kesishuv	19	0,9428	11,8261	14,4620	0,0000	10,0831	13,5691
$Ln(\pi)$			-1,9198	-8,6808	0,0000	-2,3912	-1,4484
$\lambda$			-0,2062	-2,4363	0,0278	-0,3865	-0,0258
$\delta$			0,4306	5,0237	0,0002	0,2479	0,6133
«Nol gepoteza»:  Aks holda:			H <sub>0</sub> $\beta_1=0$  H <sub>1</sub> $\beta_1\neq 0$	Kritik musbat ko'rsatkich (2,1098) dan katta va manfiy ko'rsatkich (-2,1098) dan kichik	Muhimlik darajasi (0,05) dan kichik	Ishonchlilik intervalida nol qiymati mavjud emas	

**Xulosa:** «Nol gepoteza» inkor etiladi. Ya'ni  $g_y$  – Iqtisodiy o'sish ko'rsatkichining  $\pi$  – Inflatsiya darajasi,  $\lambda$  – Joriy operatsiyalar balansi saldosi va  $\delta$  – Davlat budjeti saldosi ko'rsatkichlari bilan muhim aloqadorligi mavjud.

«Best Subsets Analysis» regression tahlil natijalariga muvofiq yakuniy modelimiz quyidagicha bo'ladi:

$$g_y = -1,9198 * Ln(\pi) - 0,2062 * \lambda + 0,4306 * \delta + 11,8261$$

Iqtisodiy o'sishning ushbu modeliga asosan O'zbekiston sharoitida makroiqtisodiy ko'rsatkichlar ichida faqat inflatsiya darajasi ( $\pi$ ), joriy operatsiyalar balansi saldosi ( $\lambda$ ) va davlat budjeti saldosi ( $\delta$ ) ko'rsatkichlari bilan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichi o'rtasida muhim aloqadorlik mavjudligi aniqlandi. Ya'ni ushbu makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni tartibga solish orqali maqsad qilib qo'yilgan iqtisodiy o'sishga erishish mumkin.

